

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“MILLIY G'OYANING BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDAGI
O'RNI” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi:

4-kurs talabasi Axatov O

Navoiy 2014

MILLIY G'OYANING BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDAGI O'RNI

Bitiruv malakaviy ishining tushuntirish qismi

1. Bob. Barkamol avlod tarbiyasi va milliy g'oyaning o'zaro uyg'unligi

1.1. Prezident I.Karimov asarlarida barkamol avlod tarbiyasi masalalari.

1.2. Barkamol avlod – jamiyatimizning poydevori va kelajagi

II.Bob. Barkamol avlodni globallashtirish jarayonida milliy qoya va ma'naviy an'analar asosida tarbiyalash

2.1. Mustaqillik yillarida barkamol avlod tarbiyasi masalalasida amalga oshirilayotgan isloqotlar

2.2. Barkamol avlod ongiga milliy istiqlol qoyalari va Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Bitiruv malakaviy ishining tushuntirish qismi

2001 yil 18 yanvarda O'zbekiston Prezidentining **«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida»**gi Farmoyishi qabul qilindi¹. SHuningdek, 2006 yil 25 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **«Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»**² qarori qabul qilindi.

Qarorga binoan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi huzuridagi Milliy mafkura ilmiy targ'ibot markazi o'rniga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining ilmiy-amaliy yo'nalishda faoliyat olib boradigan, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. YA'ni Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining amaliy targ'ibot yo'nalishida faoliyat olib boradigan Respublika targ'ibot markaziga aylantirildi.

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorliklar, ijtimoiy iqtisodiy sohalardagi islohotlar, ma'naviy-ma'rifiy tizimdagi yangilanishlarning zahirida hayotimizning asl mazmuni — farzandlarimizning barkamol turmush tarzini yaratishdek maqsad mujassam. Aytish mumkinki, 2008 yil “YOshlar yili” va 2010 yilning yurtimizda "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinishi, tom ma'noda, yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatimizning mantiqiy davomi bo'ldi. Negaki, barcha sa'y-harakatlarimizning negizida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi. Kirib kelayotgan yangi yilning mamlakatning kelajagi va umidi bo'lmish yosh avlodning barkamolligi yo'lidagi xayrli ishlarga bag'ishlanishi, bir tomondan, yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlarning ko'lamini yanada kengaytirsang, ikkinchi tomondan, biz, ustozlar

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 18 январда қабул қилинган «Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар» фани бўйича таълим дастурларини яратиш ва республика таълим тизимида жорий этиш тўғрисида»ги Фармойиши. «Маърифат» газетаси. 2001 йил 20 январь.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 25 августда қабул қилинган «Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги қарори. «Халқ сўзи» газетаси, 2006 йил 26 август.

uchun o'z faoliyatimiz davomida yanada samarali va mas'uliyatli mehnat qilish zaruratini taqazo etadi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilingan 2010 yilda bu yo'nalishdagi ezgu chora-tadbirlar ko'lami yanada ortadi. YOshlar kamoloti va istiqboli yo'lida uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan bu kabi amaliy ishlar xalqaro miqyosda ham samarali islohotlar sifatida tan olinmoqda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosiy, milliy qonunchilik hujjatlari va xalqaro huquqlarning umume'tirof etilgan qoida talablariga asoslanadi. O'zbekiston bevosita yoshlarning huquq va erkinliklarining ta'minlashga qaratilgan 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlarning ishtirokchisi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi BMTning yosh avlodning huquq va erkinliklarini ta'minlashga oid universal ahamiyatga ega muhim hujjatlarini ratifikatsiya qildi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya, "Fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risida"gi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi xalqaro Konvensiya, Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

Darhaqiqat yurtboshimiz tomonlaridan bildirilgan fikr yoshlar uchun bilim olish yo'lida yaratilayotgan keng ko'lamli imkoniyatlarda o'z tasdig'ini topmoqda.

Ertangi kun egalarining chuqur va mukammal bilim olishida, yurtimizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga izchillik bilan tatbiq etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bejizga 2010-yil yurtboshimiz tomonlaridan "Barkamol avlod yili" deb nomlanmadi.

CHuqur ma'noni qamrab olgan bu nom yoshlarning o'z bilim zakovatleri, iste'dodi, aqliy yetukligi va har sohada o'z salohiyatlarini namoyon etishlariga yana bir karra imkoniyatlar eshigini keng ochishga ko'mak beradi.

Ma'lumki, "Barkamol avlod" tushunchasi alohida mazmun kasb etadi. Xo'sh, bugungi kunda, mustaqil O'zbekiston sharoitida "Barkamol avlod" deganda qanday avlodni tushunmog'imiz kerakq

Mamlakatimiz kelajagini, milliy yuksalishimizni belgilaydigan avlod qanday sifatlarga ega bo'lishi lozimq

Har bir mamlakatning ma'naviy yetukligini anglatuvchi muhim jihatlaridan biri bu tarbiya masalasidir.

YAngi davr o'zbek madaniyati adabiyotining asoschilaridan biri bolalar adabiyoti, o'zbek milliy teatri, dramaturgiyasi, matbuoti, o'zbek milliy pedagogikasining tamal toshini qo'ygan, xalqimizning asl farzandi Abdulla Avloniyni tarbiya haqida aytgan jumllariga e'tibor qaratsak,

"Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najod – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir".

YUrtimizda kelajak avlodning tarbiyasini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, O'zteleradiokompaniyasi tomonidan muntazam ravishda bolalar va o'smirlarning ma'naviy va ahloqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan videoroliklar efirga uzatilib boriladi.

YAna shuni aytish joizki, yurtimizda yoshlarni nafaqat ruhiy barkamol avlod qilib tarbiyalashga, balki jismonan sog'lom bo'lib o'sishiga ham ancha yillardan beri e'tibor qaratib kelmoqda.

Bunga o'quvchi va talabalar uchun uch bosqichli sport o'yinlari – "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada"lar tobora ommaviy ko'lam kasb etib borayotgani. YOshlarning barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya va sportga ommaviy jalb etishning uch bosqichli uzluksiz tizimi jahon tajribasida hali kuzatilmaganligi va bunga ilk marotaba O'zbekistonda asos solinganligi ham so'zimizning yaqqol isboti bo'la oladi

Mustaqillik yillarida ta'lim sohasi, xususan, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga berilayotgan e'tibor har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash maqsadini ko'zlaydi. SHu ma'noda, 2000 nafarga yaqin o'quvchi tahsil olayotgan kollejimiz jamoasining pedagogik faoliyati barkamol avlodni tarbiyalash yo'lidagi

vazifalarni sidqidildan bajarishga bag'ishlangan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, bugungi kunda o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalar keng joriy etilmoqda, ta'lim va tarbiyada mukammal vositalardan foydalanilayotir. Bundan tashqari, boy moddiy-texnika ta'minotini yaratish, jismoniy tarbiya va sport ishlarini jonlantirish, kasb-hunar bo'yicha o'quvchilarning keng ko'nikma va malakalarni egallashlariga yordamlashish, mavjud imkoniyatlardan samarali va oqilona foydalanish natijasida bugungi kunda bitiruvchilarning oliy o'quv yurtlariga muvaffaqiyatli qabul qilinishiga, mutaxassisliklari bo'yicha ishga joylashtirilishiga erishilmoqda.

YOshlar - har bir yurt va millatning betimsol boyligi, buyuk salohiyati hamda kuch-qudrat manbai ekan, taraqqiyotga intilayotgan jamiyat u haqda g'amxo'rlik qilishni birinchi galdagi vazifasi deb bilishi tabiiy. Binobarin, yoshlarga g'amxo'rlik ko'rsatish yurt va millat kelajagi to'g'risida qayg'urmoq demakdir.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida xalqaro hamjamiyat va taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga ko'tarilish uchun harakat qilayotgan jamiyat, birinchi navbatda, bugun unib-o'sib kelayotgan farzandlarining har tomonlama barkamol avlod bo'lib hayotga kirib borishini o'zi uchun eng ulug', kerak bo'lsa, eng muqaddas maqsad deb biladi, deya e'tirof etganlarida, biz, pedagoglarning qalbimiz yana bir karra junbushga keldi. CHunki biz, ustozlar faoliyatining aksar qismi yoshlar orasida o'tadi. YAnada aniqroq aytganda, yoshlar bizning hayotimiz, bugunimiz, ertamiz. SHu tufayli ma'ruzada ta'kidlangan yuqoridagi satrlar biz, o'qituvchilarning kelajak faoliyatimiz tamoyillarini belgilab olishimizda ulkan dasturilamal bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.¹

Mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama sog'lom voyaga yetishlari uchun shart-sharoitlar yetarli. Iqtidorli o'g'il-qizlarning izlanuvchanligi, ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligini oshirish va rag'batlantirish, sog'lom avlodni kamolga yetkazishning mukammal tizimi shakllantirilgan. SHu o'rinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan uch bosqichli uzluksiz sport tizimi "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" sport musobaqalari berayotgan

yuksak samaralar, bolalar sportini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarni alohida ta'kidlash joiz.

“Barkamol avlod yili” Davlat dasturi, o'z navbatida, navqiron avlodga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatish borasida amalga oshirilayotgan tom ma'nodagi tarixiy ishlarimizni davom ettirish va yangi poonaga ko'tarishga qaratilgan. Ushbu Dasturning maqsadi mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yurtimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratishdir. “Barkamol avlod yili” Davlat dasturida aks etgan maqsad va vazifalar zahirida yagona g'oya mujassam. Bu g'oya, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, sog'lom zurriyot, ya'ni jismoniy va ma'naviy yetuk avlodning shakllanishi, imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishi uchun zarur bo'lgan tizimni yaratish, yoshlarimizning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishini, jamiyatimiz hayotida munosib o'rin egallashini ta'minlashdan iborat. Bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanayotgan yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar munosib e'tirof etilmoqdaki, bu yuksak salohiyatli, bilimli yoshlarimiz tobora ko'payib borayotganidan dalolat beradi. Kelajagimiz ishonchli qo'llarda ekanligiga ishonch esa har birimizning ko'nglimizni iftixor hislariga to'ldiradi.¹

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ў.А.Каримов 2007 йил yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish haqidagi ma'ruzasida barkamol avlod istiqboli haqida gapirar ekan: “Keyingi 10 yil davomida Ўрта maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim tizimida 100 dan ziyod yo'nalish, 265 ta mutaxassislik va 700 ta kasb Ўyicha professional ta'lim olgan va zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega Ёlgan bir million nafardan ortiq yangi avlod mutaxassilari tayyorlandi”¹, deb Ёqtirdi.

Ўltgan yillar mobaynida zamonaviy, har tomonlama jihozlangan Ёquv yurtlarini barpo etish uchun 5 milliard dollardan ortiq byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar yo'naltirildi.

Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida 12 foizdan ortadi. Holbuki, jahon tajribasida bu kirsatkich 3-5 foizdan oshmaydi.

Ўzbekiston ʻzining milliy Fanlar akademiyasiga ega bo'lib, uning tarkibida ulkan ilmiy – texnik salohiyatga ega bo'lgan 43 ta akademik institut muvaffaqiyatli faoliyat kirsatmoqda. Tabiiy va aniq fanlarning yadro fizikasi, issiqlik fizikasi, astrofizika, geliomaterialshunoslik, biologiya, mikrobiologiya, kimyo va tabiiy birikmalar kimyosi, seysmologiya yo'nalishlarida va boshqa ko'plab sohalarda istiqbolli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bugun ta'lim – tarbiya va ilm-fan sohasiga sarflanayotgan mablag'lar mamlakatimiz kelajagining egasi bo'lgan yosh avlodni, yuksak intellektual salohiyatli jamiyatni shakllantirish yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ayniqsa, 2011 yilda chop etilgan YUrtboshimiz I.A.Karimovning “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida O'zbekistonning kelajagi bo'lgan Barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Islom Karimov Respublika rahbari lavozimiga kelganining ikkinchi kuni 1989 yil 24 iyunda Vazirlar Mahkamasining kengashida **“Biz bundan buyon eskicha yashay olmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi”** deb nomlangan nutqida Farg'ona vodiysidagi bir qator tahlikali voqealarni muhokama qilar ekan, mahalliy yoshlardan kadrlar tayyorlash masalasini ko'ndalang qilib qo'ydi va yoshlarni ilm-fanga tortish, dunyo mamlakatlariga chiqarish achinarli ahvolda ekanini ta'kidladi¹. Islom Karimov Toshkentda o'qiyotgan qashqadaryolik talabalar bilan muloqot o'tkazar ekan: **“Men shuni tushunib yetdimki, biz bormagan joyda, jumladan, ana shunday yoshlar orasida boshqalar paydo bo'lib, o'z ishini bitirar ekan. SHu tariqa biz farzandlarimizni boshqalarning qo'lga berib qo'yyapmiz”**², deb qattiq afsuslanadi va buning chora-tadbirlarini izlashga kirishadi. YUrtboshimiz “Til elni birlashtirishi lozim” deb nomlangan nutqida yoshlar o'z ona tillarini bilishi va zarur bo'lgan bir qancha horijiy tillarni

¹ Қаранг: И.Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.: “Ўзбекистон”, 2011, 38-39-бетлар

² Ўша асар. 41-42-бетлар

o'rganishga ishora qiladi: "... agar rus millatiga mansub kishi o'zbek tilini bilsa, o'zbek esa rus tilini bilsa, buning ustiga hozirgi yoshlarimiz yana uchinchi tilni ham bilsalar, nur ustiga a'lo nur bo'lmaydimi?"³ Prezidentimiz keyingi chiqishlarida ham agar biz kelajagimiz, ertangi kunimizni o'ylaydigan bo'lsak, mahalliy yoshlarimizga, ularning tarbiyasiga, ilm olishlariga sharoit yaratish kerakligini o'qtirib, iqtidorli yoshlarni horijiy mamlakatlarga yangi texnologiyalarni, yangicha ish tashkil qilishni o'rganish uchun zarur bo'lsa, hatto YAponiya, Amerika kabi mamlakatlarga yuborish kerakligini o'qtirib: **"Agar shuni qilmasak, bu yurishda katta yo'lga chiqishimiz qiyin bo'ladi"**⁴, deb bashorat qiladi. 1990 yil 24 fevralda Toshkentdagi yig'ilishlardan birida "...yoshlarimiz tarbiyasi uchun, ularning baxtli, to'kin, mazmunli hayoti uchun hech narsani ayamassligimiz kerak"⁵, deb aholiga murojaat qiladi.

Bu borada respublika rahbariyati tomonidan 1990 yildan boshlab mamlakat va chet ellardagi katta ilmiy markazlar doktoranturalaridan va stajirovka o'tash joylaridan yosh olimlarimizga yuzta o'rin ajratish masalasini SSSR Fan va Texnika Davlat Komiteti oldiga qo'yilishi ulkan amaliy tadbirlarning debochasi edi. Mazkur taklifda biotexnologiya, molekulyar genetika, robototexnika sistemasi, mashinasozlik texnologiyalari, demografiya iqtisodiyoti kabi sohalarda, fan-texnika taraqqiyotining boshqa asosiy yo'nalishlarida ilmiy kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish masalasi ham ilgari surilgan edi. Unda ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, qolaversa olimlar faoliyatini respublika xalq xo'jaligi taraqqiyoti uchun ustuvor bo'lgan sohalarga yo'naltirish belgilandi.

Fanga iste'dodli yoshlarning kirib kelishini ta'minlash uchun oliy maktabning, hatto, umumiy ta'lim maktablarining faoliyati takomillashtirilishi rejalashtirildi. Ushbu rejalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

❖ iste'dodli va iqtidorli yoshlarni izlab topish, qo'llab-quvvatlash hamda ularning qobiliyatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish;

³ Ўша асар. 70-бет.

⁴ Ўша асар. 71-бет.

⁵ Ўша асар. 141-бет.

❖ maxsus respublika fondini tashkil etish hamda iqtidorli bolalar uchun maktablar va internatlar tarmog'ini vujudga keltirish, yosh olimlar uchun turli mukofotlar ta'sis etish;

❖ fanni mablag' bilan ta'minlash muammolarini ham puxta ishlab chiqish, yangi institutlar tashkil etish, mavjud institutlarning nufuzini oshirish;

❖ respublikada uzog'i bilan 2010 yilgacha ilmiy siyosat konstepstiyasini hamda O'zbekistonda fan va texnikani rivojlantirishning tegishli dasturini ishlab chiqish.

YUrtboshimiz rahbarligida Mustaqillik ostonasida boshlangan ta'lim tizimini isloh qilish muammolari istiqlool yillarida - qisqa muddatda dunyo miqyosida o'zining muvofaqiyatlarini ko'rsatdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ta'lim tizimini isloh etish – “O'zbek modeli” 2012 yil 16-17 fevralda Toshkent shahrida o'tkazilgan “YUksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizastiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi Xalqaro konferenstiyada ishtirok etgan jahon ilm ahlining yetuk mutaxassis va taniqli olimlari tomonidan yana bir bor e'tirof etildi³.

Bu g'oyalar mustaqillik yillarida amalga oshirilganligining yorqin guvohi bo'lib turibmiz. Ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan keyingi yillarni “YOshlar yili” va “Barkamol avlod yili” deb e'lon qilinishi va komil insonni tarbiyalashga berilayotgan e'tibor – kelajakka bo'lgan e'tiborning yorqin namunasi.

³ Қаранг: Халқ сўзи, 2012. 18 феврал, №35

1. Bob. Barkamol avlod tarbiyasi va milliy g'oyaning o'zaro uyg'unligi

1.1. Prezident I.Karimov asarlarida barkamol avlod tarbiyasi masalalari.

Ta'limning milliy modelida ilgari surilgan maqsadlarning mazmun mohiyatini aynan milliy istiqlool g'oyasi va mafkurasidagi asosiy tamoyillar bilan uyg'unligini shohidi bo'lamiz.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida belgilangan maqsad va vazifalarning to'la amalga oshishi birinchidan mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning yanada yaxshilanishiga olib keladi, jamiyatda yangi shaxs – komil insonlar vujudga keladi. Ular hayotga tamomila boshqacha nigoh bilan qaraydilar. Ikkinchidan, milliy model tadbiqi kishining jamiyatda o'z o'rnini topish jarayonini tezlashtiradi. Ta'limning yangi modeli ishga tushgach, - deb ko'rsatgan edi I.Karimov, - insonning hayotda o'z o'rnini topish har qanday odam ham o'smirlik chog'ida, endigina voyaga yetib kelayotgan davrda jamiyatdan munosib o'rnini topishi kerak.

Milliy modelning hayotga iadbiqu natijasida jamiyatda mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga imkon yaratmoqda. Bunday shaxslarning ko'payishi jamiyatda ongli hayot kechirish tizimini vujudga keltiradi.

Odamlar olomon bo'lib yashashdan bosh tortadilar, har bir kishi o'z aqli, o'z mehnati, o'z xulosasi bilan yashay boshlaydi. Eng muhimi bunday kishilarga chetdan har qanday nopok kuch yoki yot g'oyalar, quruq shiorlar, chaqiriqlar bilan ta'sir etib bo'lmaydi. Bunday odamlarni o'z tanlagan yo'llari, maqsadlaridan hech qanday kuch toydira olmaydi. Yuksak g'oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari yetaklaydi. g'oyasi yetuk, e'tiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko'rsata oladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan ta'limning milliy modeli masalasi, avvalo jamiyatimiz hayoti yangi mazmuniga aylangan, xalq tayanadigan kuch – milliy istiqlool g'oyasi asosiy tamoyillarini ham o'zida aks ettirgan.

Prezidentimiz I.Karimov yozganidek, «Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt – saodati uchun doimo

ma'suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimiz bebaho merosi, milliy qadriyat va an'alarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir».

Bizning ezgu maqsadimiz esa ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish asosida g'oya va mafkuramizni e'tiqod qilinadigan muqaddas tuyg'uga aylantirishdir. Chunki e'tiqodga aylanmagan g'oyani g'oya, milliy mafkurani mafkura deb bo'lmaydi.

Shuning uchun ham «ta'lim to'g'risida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da davlat, jamiyat va inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladigan, butun ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan muhim hayotiy masalalar ilgari surilgan, endilikda ta'lim-tarbiya jarayoning sifati jahon standartlari darajasiga ko'tarilib, ta'limda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining butunlay yangi usullari joriy etila boshlandi. O'quv yurtlari tuzilmalari takomillashtirilib, yoshlarga milliy uyg'onish va umuminsoniy qadriyatlarni idrok etish mafkurasida, Vatanga mehr – muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida ta'lim-tarbiya berish izchilligi ta'min etila boshlandi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 4-bobida ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, uning tarbiyaviy shakl va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga tadbiq etish, milliy tarixiy an'alar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanish muhim ahamiyat kasb etishi alohida qayd etilgan bo'lsa, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zikr etilgan uziluksiz ta'limning milliy modeli, tamoyillari mohiyatan ta'limning ilmiy – ma'rifiy, tarix, xalq an'analari, milliy merosimiz bilan uyg'unlikda olib borilishi ko'zda tutilgan. Demak, milliy modelga ko'ra, ta'lim tizimini yangilash – tabiiy ravishda milliy merosimizni va uni pedagogik tafakkur iste'moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo'lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Zamonaviy ta'lim – tarbiya tizimi va

milliy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik ta'lim – tarbiya jarayonida milliy merosning ma'naviy – ma'rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi. Shu jihatdan olib qaraganda buyuk ajdodlarimiz, allomayu mutafakkirlarning asrlar davomida yaratgan boy ma'naviy merosi yosh avlodni komillik ruxida tarbiyalashdagi ahamiyati bugungi kunda ham o'z ta'sirini yo'qotgani yo'q.

Prezident I.Karimov tashabbusi va bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan kadrlar tayyorlash milliy modelida bosh muddao qilib komil inson va yetuk malakali mutaxassis tayyorlash masalalarini qo'yilishida ham mantiqiy aloqadorlik mavjud. Zero, kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim – tarbiyadagina iborat emas, balki bir-biriga bog'liq bo'lgan ko'pgina hayotiy bosqichlarni o'z ichiga oladi. Milliy modelimiz bu – shaxs davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishning uzviy birligi va hamkorligi, ularning o'zaro bir-biriga aloqasini aks ettiradi.

Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr - qimmatini anglaydigan irodasi baqquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan, insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh me'zoniga aylanadi.

Yosh yigit - qizlarimizning ishda, turmushda, oila va jamiyat orasida o'z o'rnini topa olmaslik xolatlari ularning jamiyatda o'z qadrini yo'qotishga olib keladi.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya soxasida olib borilayotgan isloxotlar kelajakda, albatta o'z natijasini beradi. «Ta'lim to'g'risidagi qonun»ni bosqichma - bosqich amalga oshirish, akademik, ilmiy va kasb xunar kollejlari tashkil qilinishi muhim ahamiyatga molikdir.

Milliy tarbiya masalalariga e'tibor berilishi yoshlarimizni kelajakda o'z yo'lini aniq tanlashi, mustaqil fikriga ega bo'lishni ta'minlaydi.

Ertangi kun yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak malakali mutuxassislarni talab etadi.

Barchamiz yaxshi bilamizki, kelajak avlod xaqida qayg'urish, sog'lom,

barkamol insonni tarbiyalab yetishtirishga intilish, bizning milliy xususiyatimizdir.

O'zbek xalqi doimo farzandim deb yashaydi. Shu ma'noda uning sog'ligi, jismoniy, aqliy kamolotga alohida e'tibor bilan qaraydi. Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir.

O'zbek millatining, o'zbek farzandlarining qobiliyati, zexn-zakovati, tirishqoqlik borasida boshqa xech bir millat yoki xalqdan qolishadigan joyi yo'q.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng turli sohalar bo'yicha yoshlar dunyo axliga o'zlarini tanita boshlashdi, masalan: sport sohasida sobiq sho'rolar davrida imkoniyat berilmagan.

Bugun jaxon bizdan o'z so'zimizni aytishimizni, o'z tafakkurimizni namoyon etishimizni talab qilmoqda. Boshqa xalqlar, boshqa millatlar bizga yotsirab-bepisand qarashmasligi, balki bizni e'tirof etishi kerak.

Yoshlarni zamonaviy fan – texnikaning, umuman ilm-fanning yutuqlaridan baxramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishga sharoit tug'dirmay turib, sanoat ishlab chiqarish sohalarini tubdan o'zgartira olmaymiz.

Har qanday ulug' maqsadlarga intilish, ya'ni jamiyatda, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go'zal hayot barpo etish, avvalo, shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil insonlarga, kelajak barkamol avlodga bog'liqdir.

Inson so'zi ona, Vatan degan kalomlar kabi muqaddasdir. Bu muqaddaslikni, inson erkini daxlsizligini mustaxkam qonunlarimizni ximoya qilishimiz kerak.

Allohning eng chiroyli, mukkamal mo'jizasi bu-odmzod insondir. Oddiygina shaxs tushunchasiga nazar tashlaydigan bo'lsak: ma'lum bir jamiyatda yashab odamlar bilan muomala – munosabatga kirisha oladigan, o'zi yashab turgan jamiyatning taraqqiyotiga o'z xissasini qo'shadigan insonga shaxs deyiladi.

Inson tushunchasi ham bir qator burch va ma'suliyatlarni taqozo etadi.

Aslida inson baxt uchun, dunyo ne'matlaridan baxramand bo'lishi uchun tug'iladi. Tabiatning barcha inomlari inson uchundir.

Har bir inson umid bilan yashaydi. Orzu-havasiga erishsam, bolalarni roxatini

ko'rsam, ularni kamolini ko'rsam deydi. Bu ayniqsa, bizning bolajon xalqimizda yorqin namoyon bo'ladi. Ne-ne ota – bobolarimiz ozod kunlar uchun o'zlarini jonini qurbon qilganlarini shunday qutlug' kunda eslash o'rinlidir. Ularga taskin bergan yagona narsa ham men ko'rmagan baxtli kunlarni bolalarim ko'rsin degan qutlug' niyat edi.

O'tmishda yashagan insonlarning hurmat ini bajo etar ekanmiz, bugungi kunda yashab, mustaqilligimiz uchun, xalqimizning farovon hayoti uchun kurashib kelayotgan fidoiy insonlarimizni unutmasligimiz kerak.

Inson dunyoga yaxshi ish qilishi, yaxshi iz qoldirishi uchun keladi.

Har bir inson o'zicha takrorlanmasdir.

Har bir insonni o'z maqsad muddaolari, orzu intilishlari, o'z qarashlari mavjud, shu bilan birga o'z g'ururiga egadir.

Shu zaminda yashayotgan har bir inson millati, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar Vatanimiz farzandidir.

Jamiyatning haqiqiy boyligi bu – inson, inson avlodi. Jamiyatdagi har qanday yangilanish, har qanday o'zgarish avvalo inson uchun, uning hayotini farovon etish uchundir.

Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatdagi yoshlar qatlamiga milliy g'oya va qadriyatlarga munosabati, uning yoshlar ongiga qanday ta'sir etayotganligiga hamda amaliy faoliyatlariga qanday tarzda tayanishlariga bog'liq. Yoshlar respublikamiz aholisining yarmidan ko'pini tashkil etadi. Shuningdek, yoshlarning milliy g'oyani anglashish, ishonch va e'tiqodiga aylanishi, qanday yangi qadriyatlari shakllantirilganligi bilan ham bog'liq bo'ladi.

Chunki milliy g'oya bir tomondan, yoshlarni o'zining ob'ekti sifatida qarasa, ikkinchi tomondan yoshlar milliy g'oyaning ilg'or rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga etkazuvchilari hisoblanadilar. Uchinchidan yoshlar qanchalik milliy g'oya bilan qurollangan va uni anglab olgan bo'lsa, jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi. Bu holat milliy g'oya va yoshlarning o'zaro bog'liqligini belgilaydi. Boshqacha aytganda milliy hoya qanchalik mazmunli, har bir kishining uzoqqa mo'ljallangan maqsad va manfaatlari, pirovardida esa, millatning istiqbolini

belgilashga xizmat qiladigan bo'lsa, uni yoshlar shunchalik tez qabul qiladi va unga nisbatan o'zining ijobiy munosabati shakllanadi. Demak jamiyat milliy mafkura orqali yoshlarga qanday g'oya va fikrlarni taklif etsa, shunga mos ravishda g'oyaviy jihatdan chiniqqan, vatanparvar, zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarga ega bo'ladi. eng muhimi shundaki, har bir jamiyatda qanday maqsadda bo'lmasin yangi g'oya va koncepciyalarga nisbatan yoshlar o'z munosabatini bildiradi va aholining boshqa qatlamiga nisbatan tezroq qabul qiladi. Chunki yoshlar fiziologik va psixologik jihatdan hali shakllanish bosqichida bo'lgani uchun ularda yangiliklarga nisbatan qiziqish kuchli bo'ladi va uni e'tiqodga aylantirish ehtiyodi katta bo'ladi. Shuningdek, yoshlar o'zlarining ijtimoiy-ruhiy va boshqa jihatlarga ko'ra salbiy hodisalarga tez beriluvchanlik jamiyatdagi o'zgaruvchan sharoitga moslashish qobiliyatining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Ular jamiyatning shunday ijtimoiy ruhiga mansubki, ular o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosibligi holatlarini kuchliroq sezaдилar. Kattalar uchun odatiy bo'lgan ayrim "adolatsizlik"lar yoshlarning hali to'liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli ziyon etkazishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlar orasida milliy g'oya, milliy g'urur va or-nomus bilan bog'liq ma'naviy-ruhiy holatlar muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning oldida haqiqatni aytishdan cho'chimaslik, soxtakorlikdan qochi, mavjud qiyinchiliklar, muammolarni ochiq-oydin bayon etish lozim. Ayni paytda davlatimiz rahbariyati olib borayotgan ijobiy ishlar va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun olib borilayotgan sa'y-harakatlari va erishayotgan amaliy natijalar xususida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor berish yoshlarning jamiyatimiz, davlatimiz, mustaqilligimizga bo'lgan ishonch-e'tiqodini mustahkamlash olimlarimiz, peshqadam ziyolilarimiz ma'ruzachilarimiz, mafkuraviy ishlar bilan shug'illanuvchi barcha targ'ibot – tashviqotchilarning birinchi darajadi vazifasi hisoblanadi.

Milliy g'oyaning yoshlarni safarbar etish, ilhomlantirish, buyuk kelajak sari chorlash uchun ahamiyati ta'lim a tarbiyada tutgan o'rni va roli uning hayoti

haqiqatlariga, real borliqqa, xalq turmushiga qanchalik mos va muvofiqligiga qarab belgilanadi.

Yoshlarda haqiqatga mayillik yuqori bo`ladi, soxtakorlik, ko`zbo`yamachilik, so`z bilan amaliyoti boshqa kimsalardan jirkanadi, u nafratlanuvchi ruhiyati kuchli bo`ladi. Milliy g`urur va or-nomus tuyg`ularini shakllantirishda xalqning madaniy merosi, milliy qadriyatlari, ulug` mutafakkirlarning ibratli hayoti bugungi erishilayotgan yutuqlari muhim. Yosh avlod ongiga milliy istiqlol mafkurasini 1 p ijtimoiy adolat haidagi g`oyalarini singdirishda Abu Nosir Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig”, Nizomulkning “Siyosatnoma”, A.Temurning “tuzuklar”, A.Navoiyning “Mahbub ul-qulub” nomli mashhur asarlari tarixiy-ilmiy manba bo`lib xizmat qiladi.

Yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati, milliy g`oya asosida erkin hayot, obod va ozod Vatan qurish yo`lidagi harakatlari, maqsad va manfaatlarini umumlashtiradigan, tahlil etadigan, shu g`oyalarni boyitish va ishonch, e`tiqodga aylantirish bilan bog`liq. Bu ishni yo`lga qo`ymoq uchun tuo`rtta masalaga e`tibor berish lozim va zarurligi ko`rsatilgan.

Birinchidan, mavjud vaziyatni, yaqin istiqbolimizning rivojlanish tamoyillarini, kerak bo`lsa undagi salbiy holatlarning ijtimoiy sabablarini xolis o`rganadigan nodavlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ularning imkoniyatlaridan to`la foydalanish zarur. Ikkinchidan, shiddatli sur`atlarda o`zgarayotgan, to`xtovsiz yangilanayotgan zamon, hayotimizda muttasil ravishda ro`y berib turgan voqea, xodisa va jarayonlar, O`zbekiston davlat mustaqilligining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma`naviy zaminlarini bundan-da mustahkamlash va barqarorlashtirishga bo`lgan talab va ehtiyojlar ma`naviy, ma`rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jadallashtirish, umumiy maqsad yo`lida safarbar etish;

Uchinchidan, milliy g`oyaning kuchi bir tomondan ma`rifat-targ`ibot ishlari, uning kundalik hayotda duch kelayotgan muammolarning tushunishlari, ularning muneosabatlariga fikrga fikr bilan, g`oyaga g`oya bilan javob bera olish, uni qanday hal etayotganliklariga bevosita bog`liqdir. Millat ravnaqi, Vatanga kerak

bo'lsa jonini jabborga berib faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar bo'lmasa, milliy istiqlol g'oyasida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Bu yoshlarda milliy g'ururni baland bo'lishini taqozo etadi.

Biz umumbashariy qadriyatlar, Sharq falsafasi, yuksak axloqiy-estetik ideallar, milliy an'analar asosida tarbiya maktabini bunyod etgan mutafakkirlarimiz bo'lganidan faxrlanamiz.

Bizga bobokalonimizdan dinimiz, o'zbekona turmush tarzimiz meros qolgan. Ana shuning uchun ma'naviy qadriyatlarga e'tibor berish, yoshlarning maqsadi va orzu-umidlariga e'tibor berish, yoshlarning maqsadi va orzu-umidlariga munosib hayot barpo etish juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Chunki "Kelajagi buyuk davlat, eng birinchi navbatda, bo'lajak fuqarolarining madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur. Yosh avlodga ozod va obod Vatanni meros qoldirar ekanmiz, ular mutafakkirlarimizning, davlat rahbarlarining ulug' ishlarini davom etirishlarini nihoyat qilar ekanmiz, yoshlarning ma'naviy uyg'oqligiga ahamiyat berish lozim.

Millat taraqqiyoti, ma'naviyati va ma'lumoti yuksak bilimli yoshlarga bog'liq. Aks holda yoshlarning manqurtligi va faqat pulga sajda qiluvchi arzon ishchi kuchiga aylanib qolish xavfi tug'iladi. Millatning istiqboli arzon-garovga o'z kuchini sotadiganlar evaziga emas, aksincha kishilar o'z hayotini ijodiy va jamiyat taraqqiyotida ijobiy rol o'ynaydigan mehnat asosida qurgan yoshlarga bog'liq. Kelajagimizga umid va ishonch katta.

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak yoshlar o'zligini anglay boshladi. Sharq falsafasi, o'zbekona tafakkur nuri barchaning dilidan o'rin ola boshladi. Milliy an'analarimiz va umidlarimizni tiklash va rivojlantirish tamoyili kuchaydi. Islom dinimizni olib keldi. Ulug' bobokalonlarimiz madaniy xazinasiga haqiqiy vorilik qila boshladik. Ulardan faxrlanish imkoniyatiga ega bo'ldik. Yurtimizda yashayotgan millatlar, elatlar vakillarining tinch-inoq yashashi uchun sharoit yaratildi. Bundan yoshlar bahramand bo'lmoqda. Yangi jamiyatning maqsad va ideallariga binoan yangi avlod dunyoqarashi, o'z navbatida, ma'naviy yangilangan, rivojlangan va shakllangan avlodlar ruhining poklanishini ham taqoza etmoqda.

Yangi jamiyat avval millat orzusida, qalbida pishib etiladi. So`ngra u ob`ektiv reallikka aylangan, keng jamoatchilikning hayot va taraqqiyot tarzini ifodalovchi g`oya tarzida qaror topdi. Xuddi shu jamiyat etishtirgan kishilar keng jamoatchilikning ilg`or dunyoqarashi va tafakkuriga zarurat sezadi. Bir-birini taqazo etuvchi va bir-birining taraqqiyotini belgilovchi g`oyaviy omillar mushtarakligi jamiyat va mamlakatning milliy manfaatlari respublikamizda qaror topayotgan fuqarolik jamiyatini va bu jamiyatda istiqomat qiluvchi yoshlarning ongini, dunyoqarashini o`zgartirish va insonlashtirish maqsadida nihoyatda ko`p chora-tadbirlar ko`rilmoqda. Inson erkinligi va ozodligini kafolatlovchi O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. kator universitetlar tashkil etilib, o`quv tizimimizda jahon andozalari, tarbiya yo`nalishida ma`naviy merosimizning eng ilg`or va insonparvar tamoyillari asos qilib olindi. Davlat va jamiyat qurilishi masalalarini o`rganish, yuksak malakali rahbar kadrlar tayyorlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamit qurilishi Akademiyasi tashkil etildi. Vatanimizning Qurolli Kuchlari va xavfsizligini mustahkamlash, fuqarolarning o`z uyi va ish joylarida tinch-xotirjam bo`lishlari bo`yicha chora-tadbirlar belgilandi: ta`lim tizimidagi islohotlar zamonaviy licey va kollejlari ta`sis qilinishga olib keldi: yoshlarning bilim va salohiyatlarini yuksakltirish maqsadida "Ulug`bek", "Umid", "Ustoz", keyinchalik "iste`dod" jamg`armalari tuzildi. O`zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi asosida umumiy o`rta ta`lim, o`rta maxsus kasb-hunar ta`limini tashkil etish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Badiiy Akademiyaning tashkil etilishi Imom ismoil Buxoriy, Amir Temur, Bobur, ulug`bek Moturidiy, Xo`ja Axror- Vali kabi milliy madaniyatimiz darg`alariga bag`ishlangan tantanalar, qurilgan majmualar yangi jamiyatning amalga oshirayotgan real ma`naviy ishlaridir. Ular yangi jamiyatning kuch-qudratidan nishona bo`ligina qolmay, milliy ong va yangi dunyoqarash shakllanishida milliy g`ururni mustahkamlashda juda katta ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning ongi va tafakkuri o`zgarib, yangilanib bormoqda. Tafakkur va ongimizda mustaqillik g`oyalari mustahkamlanmoqda.

Dunyoni, o`zimizni va o`zligimizni anglash imkoniyati qo`lga kiritildi. Bu yoshlar tafakkurini mustaqil tafakkuri talablariga mos shakllantirmoqda.

Mustaqillikning dastlabki va eng oliy ne`mati o`zligimizni anglab etish bo`ldi. O`zligini anglab etgan tafakkurining birinchi belgisi milliy g`oya, milliy mafkuradan bahramand bo`lishdir. Mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlik milliy mafkura doirasida uchrashi mumkin, bo`lgan ichki ixtiloqlarning oldini oldi va uni keng miqyosda yoshlar qalbiga kirib borishga imkon yaratdi. Yoshlar ong va tafakkurda o`zgarish kuchaygan ekan, ular o`z hayoti va istiqbolini millat hamda mamlakat istiqboli bilan bog`liq ekanligini chuqur his qila boshlaganini anglatadi. Har bir sohada o`zgarishlar, yutuq va muaffaqiyatlar kun sayin ko`payib kengayib borayotgan ekan, mafkura sohasida endi ish qolmaydi, hamma narsa uylaganimizday davom etib boraveradi, deyish to`g`rimi? Albatta yo`q. Negaki dunyoda muallaq bir xududda yashayotganimiz, atrofimizda turli tizimi va tuzumdagi xalqlar va mamlakatlar mavjudligi, mafkuradek nozik ma`naviy jarayonning uzluksiz o`sish va o`zgarishda bo`lishini taqozo etadi. "Dunyoda yoshlar ongi va qalbini egallashga" urinishlar saqlanib qolmoqda. Demak mafkuraviy tahdidning saqlanib qolishi yoshlarni ham o`ylashga undaydi.

Milliy g`oya, milliy tafakkur va milliy mafkura yo`lida yoshlar qanchalik birlashsa, jipslashsa jahon xalqlari ko`z o`ngida kuchimiz, mavqeimiz va o`rnimiz shunchalik baland ko`tariladi. Biz boshqa davlatga suyanib, boshqa davlatlarni panoh tutib, ularning etagidan ushlab yuradigan davlat, xalq emasmiz, mustaqil siyosat, mustaqil tafakkur va mustaqil harakatlargina doimo boshqalarda hurmat va e`tibor uyg`otgan. Mutelik, tobelik mevasi har qanday sharoitda millatning rivojlanishiga yo`l bermaydi. O`zimizning kuchimiz, qudratimiz, o`zimizning maslagimiz va o`zimizning ongimiz tufayli biz buyuk davlatga erishamiz. Hozirgi sharoitda kimda kim o`z mustaqil Vatani, o`z mustaqil fikri, mustahkam e`tiqodi bo`lsagina tenglar ichida teng bo`ladi. Hozirgi davr uchun dolzarb va asosiy hisoblangan milliy g`oya tamoyillari millat tarixi va uni idrok etish darajasiga bog`liq bo`ladi. Chunki, milliy g`oya osmondan tushmaydi, u erda yurgan

odamlarning qalbida, shuurida etilib, shu er, shu zamin, shu Vatan xizmati uchun qaratilgandagina uning ahamiyati va mavqei ham ortib boradi.

Milliy g'oyaning yoshlar ongida chuqur o`rin olganin aniqlashning asosiy mezonini shu aziz Vatanimizni, shu aziz xalqimiz qadriyatlari barchamizniki, bu Vatan, bu millat uchun yashash va uning istiqboli uchun halol va pok mehnat qilish baxt ekanligini qanchalik his qilishlaridir.

1.2. Barkamol avlod – jamiyatimizning poydevori va kelajagimiz

Prezidentimiz Islom Karimovning “Farzandlarimiz bizdan ko’ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo’lishlari shart” degan gaplarida O’zbekistonda yosh avlodni tarbiyalash borasidagi davlat siyosatining mazmun-mohiyati o’z ifodasini topgan.

Ayeiqsa, 2012 yil “Mustahkam oila yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan yosh oilalarga bo’lgan e’tibor yanada kuchayib bormoqda.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq davlatimiz milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, jamiyat taraqqiyotiga o’z hissasini qo’shishga qodir, jismoniy va ma’naviy yetuk avlodni kamolotga yetkazishga, ularning ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Zotan, yoshlar har bir yurt va millatning betimsol boyligi, kelajagi. Ularga g’amxo’rlik ko’rsatish yurt va millat kelajagi haqida qayg’urmoqdir. YUrtboshimizning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimda 2010 yilni “Barkamol avlod yili” deb e’lon qilishi yuqorida qayd etib o’tilgan fikrlarning yana bir tasdig’idir. YOshlarimiz jamiyat taraqqiyotining asosidir. SHu bois barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Sog’lom avlod, ya’ni jismonan baquvvat, iymon-e’tiqodi butun, bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlod kelajagimiz poydevori ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Joriy yil “Barkamol avlod yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan “Barkamol avlod yili” davlat dasturi tasdiqlandi. Dasturning maqsadi mamlakatimizda sog’lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o’z ijodiy va intellektual salohiyatini ro’yobga chiqarish, yurtimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to’liq javob beradigan, har tomonlama yetuk shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratishdir. “Barkamol avlod yili” davlat dasturida aks etgan maqsad va vazifalar zahirida yagona g’oya mujassam. Bu g’oya Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, sog’lom zurriyot, ya’ni jismoniy va ma’naviy yetuk avlodning shakllanishi,

imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan tizimni yaratish, yoshlarimizning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishini, jamiyatimiz hayotida munosib o'rin egallashini ta'minlashdan iborat.

Jismonan va ma'nan barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi islohotlarimiz jamiyatning boshqa sohalari bilan ham chambarchas bog'liq holda tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, ta'lim, ilm-fan sohasi bo'ladimi, tibbiyot yoki sport bo'ladimi, boshqa qator sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi ham yosh avlodni sog'lom va yetuk inson qilib tarbiyalashdir. Bunga esa mamlakatimizda barcha shart-sharoitlar mujassamdir. SHu o'rinda Vatanining taqdiri, buguni va kelajagi uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan kadrlar tayyorlash yo'lida amalga oshirib kelinayotgan zalvorli ishlarni alohida ko'rsatib o'tish joiz.

Prezidentimiz 2009 yilning yakunlari va 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida "Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz" deb ta'kidlab o'tdi.

YUrtboshimiz - +urolli Kuchlarimiz Oliy Bosh +o'mondoni rahnamoligida olib borilayotgan islohotlarning barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'liq yana bir bo'g'ini bu +urolli Kuchlarimiz tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasi o'laroq, milliy armiyamiz yurtimiz hududiy yaxlitligi va xalqimiz xavfsizligining ishonchli kafolatiga aylanganligidir. CHunki harbiy xizmatni o'tash aksariyat yoshlarimizning sharaflari burchiga aylangan. Bugun vatani va xalq oldidagi burchini o'tayotgan yigitlarning xizmat hamda yashash sharoitlarini zamon talablari darajasiga ko'tarish, ularning ijtimoiy

muhofazasini mustahkamlash masalalariga davlatimiz tomonidan ulkan e'tibor qaratilayotganligi buning tasdig'idir.

Harbiy xizmatga kelgan va xizmat o'tayotgan yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasi, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shish maqsadida Respublikasi Harbiy prokuraturasi organlari tomonidan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 27 yanvardagi P+-1271 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Barkamol avlod yili" davlat dasturi ijrosini ta'minlash yuzasidan tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va ijroga qaratildi. Mazkur rejada dasturda belgilangan ustuvor vazifalar yuzasidan +urolli Kuchlarda harbiy xizmatchilar va xizmatchilarning huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini yuksaltirish, huquq-tartibotni mustahkamlash borasida qator profilaktik tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Muddatli harbiy xizmatga kelgan yoshlarimiz hamda harbiy xizmatni shartnoma asosida o'tayotgan yosh ofitserlarimiz o'rtasida bunday tadbirlarning muntazam o'tkazilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Harbiy prokuratura organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi mudofaa tizimidagi maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida "Ta'lim to'g'risidagi" +onun va ular faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar ijrosining to'g'ri va aniq bajarilishi, shuningdek, shahar va tuman markazlaridan uzoqda joylashgan harbiy qism xizmatchilari farzandlarining maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etilishi, harbiy shaharchalarda bolalar sport va o'yin maydonchalari tashkil etilishini ta'minlash, oliy harbiy bilim yurtlari va serjantlar tayyorlash maktablarida o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil qilinishi alohida nazoratga olingan.

SHuningdek, mazkur reja asosida harbiy qism va muassasalarda harbiy xizmatchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlari, boshqa turli halokatli tahdidlarga qarshi kurash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, huquqiy madaniyat va savodxonlikni yuksaltirish muammolariga bag'ishlab konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari tashkil etilayapti. Harbiy qism va

muassasalarda harbiy xizmatchilar va faxriylarning uchrashuvini o'tkazib borish odat tusiga kirdi. Bu kabi tadbirlar albatta o'z samarasini bermasdan qolmaydi.

Prezidentimiz I.Karimovning 2009 yil 1 iyuldagi "2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi 1144-son qarori ijrosini hayotga tatbiq etish maqsadida oilaviy hayot ostonasida turgan yoshlar ishtirokida "YOsh oila maktabi" o'quv-mashg'ulotlarini olib borish, oilaviy hayot saboqlaridan, oilada sog'lom muhitni shakllantirish, sog'lom farzandlar dunyoga keltirib, ularni komil inson qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya soatlari amalga oshirilmoqda. Bunda avvalombor, oilaning muqaddasligi hamda nikoh mas'uliyati bo'yicha kelajakda oila quradigan yigit va qizlarning tafakkurini, ongini o'zgartirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bizlarimiz ongida onalik, yigitlarimizda esa ota bo'lish mas'uliyatini shakllantirish, yosh oilalarning huquqiy savodxonligini yanada yaxshilash va oilada bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari muntazam ravishda o'tkazilmoqda.

O'tgan 2009 yil davomida Toshkent shahar adliya boshqarmasi va uning quyi tizimlari tomonidan jami 2906 ta huquqiy targ'ibot tadbirlari o'tkazilgan bo'lib, shundan 954 tasi OAV orqali yoritildi. Mazkur tadbirlarning 280 tasi Xotin-qizlar, 279 tasi voyaga yetmaganlar huquqlariga oid mavzularni tashkil etadi. O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish, inson huquqlari, mustaqillik mohiyati, diniy ekstremizm va terorizmga qarshi kurash, yoshlar o'rtasida sog'lom oila- sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, el-yurtga, Vatanga munosib farzandlar bo'lib o'lg'ayish, giyohvandlik, ahloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta'sirlardan "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi tahdid va xatarlardan asrash kabi masalalar o'tkazilgan tadbirlarning asosiy maqsadi bo'ldi.

Muxtasar qilib aytganda, yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, himoya qilishga yo'naltirilgan huquqiy bazani yanada takomillashtirish va

mustahkamlash, ularning umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan yetuk shaxslar etib voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalardan biriga aylangan. Bunday ezguliklar yoshlarni Vatanga muhabbat, sadoqat va qadriyatlarimizga hurmatini yanada oshiradi. +olaversa, o'sib kelayotgan sog'lom va barkamol avlod hamda yosh oilalar mamlakatimizda nechog'li e'tiborda ekanligidan dalolat beradi.

2. Bob. Barkamol avlodni globallashuv jarayonida milliy g'oya va ma'naviy an'analar asosida tarbiyalash.

2.1. Mustaqillik yillarida barkamol avlod tarbiyasi masalalasida amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlar

“GLOBALLASHUV (globalizatsiya) – lotincha “global” so'zidan olingan bo'lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” deb tarjima qilish mumkin. yer sharining, yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi.

...Kapitalizm davrida temir yo'llar, okean kemalari, aviatsiya, radio, telefon, telegraf, televideniye, internet tizimi, yerning sun'iy yo'ldoshlari, kino, kundalik matbuot va boshqa narsalar yaratildi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, yer shari hammamizga ma'lum, har jihatdan o'zlashtirilgan, har kuni har burchagida nima bo'layotgani barchamizga ma'lum go'shaga aylandi. yer kurrasining noma'lum, inson bilmagan, u oyoq bosmagan joylari qolmadi .

Respublika Prezidenti I.A.Karimov “YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida globallashuv jarayoniga alohida to'xtalib, uni quyidagicha sharhlab berdilar: “Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'ektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas .

Prezidentimiz I.A.Karimov 2010 yilni “Barkamol avlod yili deb” e'lon qilar ekanlar, unda globalizm sharoitida yoshlarning bu jarayondagi o'rnini alohida ta'kidladilar: “Hammamizga teran bir haqiqat ayon bo'lishi kerak – biz

yurtimizning ertangi rivoji yo'lida qanday chuqur o'ylangan dasturlarni tuzmaylik, bu rejalarni bajarish uchun qanday moddiy baza va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha ko'p sarmoya safarbar etmaylik, ularning barchasini amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham bo'lsa, yuqori malakali ish kuchi va yurtimizning ertangi kuni taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis yoshlarimiz, desak, o'ylaymanki, hech qanday xato bo'lmaydi"□.

Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini, ularning hayotiyligi va ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida Prezidentimizning 2006 yil 25 avgustdagi "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi №451 sonli qarori alohida ahamiyatga egadir.

Milliy g'oya samaradorligini oshirish va unda yoshlarning o'rni Respublika Prezidentining 2006 yil 25 avgustda qabul qilgan qarorida alohida o'qtirib o'tilgan: "Bugungi kunda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini atroflicha sharhlash va tushuntirish, yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy va informatsion xurujlar, ularning ortida turgan, kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh qilish, odamlarni xushyorlik va ogohlikka da'vat etish, olimlar, siyosatchi va mutaxassislar, ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ'ibot tizimini yo'lga qo'yish"□.

Respublika ma'naviyat va ma'rifat Kengashining navbatdan tashqari yig'ilishida bildirilgan takliflar, milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Bu ko'rsatmalarning barchasi quyidagilarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatadi:

milliy g'oya va mafkura masalasi bilan bog'liq dolzarb muammolarni atroflicha tahlil qilish va baholashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ularning aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy hurujlarning oqibatlarini ochib berish;

ko'p asrlik xalqimizning ma'naviyati va milliy qadriyatlari, diniy qarashlari va hayotiy udumlariga, yoshlarimizning ongini zaharlab, ma'naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy jarayonlarga qarshi samarali kurashning vosita va usullarini aniqlash;

ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarning ta'sirchanligini taminlaydigan zamonaviy axborot texnologiyalari va mexanizmlarini, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlashga e'tiborni qaratish;

yoshlar o'rtasida vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo'naltirilgan suhbat, uchrashuvlar, ma'rifiy tadbirlarni muntazam ravishda o'tkazib turish;

bizga qarshi qaratilgan g'oyaviy va informatsion xurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh qilish, odamlarni hushyorlik va ogohlikka da'vat etish;

Olimlar, siyosatchi va mutaxassislar, ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

Ota-ona, oila va mahalla, tarixiy xotira, milliy g'urur, komil inson tarbiyasi bilan bog'liq tuyg'u va tushunchalarni barkamol avlod qalbi va ongiga ta'sirchan va zamonaviy uslublar orqali singdirishimiz zarur.

YOshlarimizni qutlug' qadamjolarga hurmat, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, o'zaro mehr-oqibat ruhida tarbiyalash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni keng ko'lamda amalga oshirishni dolzarb vazifa ekanligiga e'tibor qaratish zarur.

Globalashuv jarayonida yoshlarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish ulardagi milliy g'ururni yuksaltirish va ularni milliy istiqlool g'oyasi va mafkurasi ruhida tarbiyalashda yuqoridagi tadbirlar muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi kunda ayrim kuchlar xalqaro axborot almashinuvi internet tizimi orqali ataylab informatsion xurujlar – "ayg'oqchilik", siyosiy terrorizm, diniy

muttasiblikni targ'ib etib, internet saytlarini har xil vahshiylik, behayolik kabilarni targ'ib qilib kelish davom etmoqda. Bu materiallarni yoshlar to'g'ri qabul qilib, yaxshisi-yu yomonini ajrata oladilarmi To'g'ri xulosa chiqara oladilarmi SHuning uchun ham biz milliy g'oya targ'ibotiga, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligiga alohida e'tibor berishimiz, yoshlarimizda milliy g'urur va milliy o'zlikni anglashni shakllantirib, ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashni muhim vazifamiz deb e'tirof etishimiz zarur.

Odam ikki narsani tanlamaydi – biri Vatan, ikkinchisi – Ota-ona. Odam bolasi jinoyatchi, yovuzlikka moyil bo'lib tug'ilmaydi. Ayrim yoshlarning jinoyatchilik yo'liga kirib, har xil yovuz, ekstremistik guruhlar ta'siriga tushib qolishining ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bor. +uyidagilar bu salbiy omillarning eng asosiylari hisoblanadi:

ayrim oilalardagi nosog'lom muhitning ta'siri, oiladagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning zaifligi;

ba'zi yoshlardagi bilimsizlik, aqliy faoliyatning sustligi, fahm-farosatning rivojlanmaganligi;

giyohvandlikka moyil, narkotik moddalarga ruju qo'ygan, tafakkuri zaif kimsalar yovuz to'dalar qopqoniga tushib qolishi juda oson;

ruhiy jihatdan sog'lom bo'lmagan yoshlar;

uzoq muddat ishsiz yurish, bekorchilik;

ekstremistlarning yolg'on va'dalariga, da'vatlariga, har xil aldovlariga ishonish kabilardir.

Keyingi paytlarda ayrim yoshlar pul topish ilinjida xorijga borib, qabih to'dalar qo'liga tushib qolmoqdalar. Aqidaparast, terrorchi unsurlar yosh yigit-qizlarning pulga o'chligi, bilimsizligidan foydalanib, ularni o'z tomoniga og'dirib, jar yoqasiga olib borib qo'ymoqda, jinoyatchilik, fohishalik yo'llariga boshlamoqda.1 Buni yoshlar ommaviy axborot vositalari sahifalarida, radio va televideniye ko'rsatuvlarida ko'rib xulosa chiqarishlari lozim.

Prezident I.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" nomli asarida "O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmat, or-nomusi va shon-sharafi,

uning o'ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir. Biz bundan keyin ham o'zbeklarning milliy g'ururini ma'naviy yuksaltirishimiz, shu bilan birga umumiy vatanimizda biz bilan birga yashovchi va O'zbekiston Respublikasiga sadoqati bo'lgan barcha xalqlar bilan birodarlikka intilamiz"², deb ta'kidlagan edilar. Darhaqiqat, bu so'zlarda juda chuqur ma'no bor.

Milliy g'oya va milliy g'ururni aholiga yanada chuqurroq singdirish va uni yuksak darajasiga ko'tarish uchun katta kuch-g'ayrat sarflash lozim bo'ladi. Bu ish eskirgan shiorlar, dabdabali yig'ilishlar, haybarakallachilik bilan o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar orqali bo'lmaydi. Xalqimizda shunday udumlar, urf-odatlar borki, ular milliy g'ururni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik bayrami, Navro'z va hayit bayramlari, Vatan xizmatiga yuborish arafasidagi tadbirlar, hosil sayli, xotin qizlar bayrami, konstitutsiya nishonlanadigan kun, aholining to'y marosimlari, yubileylari, Xotira va qadrlash kunlari, hashar, ziyoratlar shular jumlasidandir. Hozirgi vaqtda Respublikamizda 4 mingdan ortiq tarixiy obidalar mavjud. Ularning aksariyati Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent va boshqa viloyatlarda joylashgan.

Bunday joylar barkamol avlodni tarbiyalash, ularga Vatan mehrini singdirishda alohida ahamiyatga molikdir. Prezidentimizning "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori respublika ma'naviy va ma'rifiy ishlar samaradorligini kuchaytirishda muhim o'rin tutib kelmoqda. Milliy g'oya targ'iboti orqali milliy g'ururni ko'tarish har bir fuqaroning aqliy va mehnat faoliyatiga katta ruh bag'ishlaydi. Bu esa jamiyatimiz, xalqimiz oldida turgan qiyin muammolarni yechishda yordam beradi. Prezidentimiz "YUksak ma'naviyat–engilmas kuch" asarida ta'kidlaganlaridek, "Olis va yaqin tariximiz shuni ko'rsatadiki, xalqimiz doimo ma'naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug' tuyg'u uning hayotida yillar, asrlar o'tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. CHunki, xalq ma'naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g'ayrat va ilhom olib o'zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi."□

...Bugungi sharoitda har bir ongli fuqaroning vazifasi – o'z millatining raqobatbardoshligini ko'tarish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkor iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli yutuqlari uchun kurashishdir. Buning uchun mustaqil O'zbekistonning har bir fuqarosi, birinchi navbatda, hozirgi kun amaliyoti talab qilayotgan to'rt sifatga ega bo'lishi shart: 1) zamonaviy mutaxassis bo'lishi; 2) o'zbek davlat tili, rus tili, ingliz tillarini mukammal bilishi; 3) doim o'z bilim doirasini yangilab borishi va 4) tadbirkor-tashabbuskor bo'lishi kerak.

“Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa – ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g'oyamizning o'zviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrleydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iboratdir”.¹

Kelajak yoshlar qo'lida. Aslida, bu ortiqcha izohni talab etmaydigan haqiqatni jahondagi ko'plab xalqlarning uzoq va yaqin tarixi isbot etgan. Xususan, yevropadagi Renessans davri ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlardan, tafakkur erkinligidan boshlandi. Natijada pedagogika va ta'lim masalalariga bag'ishlangan qator risolalar, yangi maktablar dunyoga keldi.

+olaversa, yevropada “Ma'rifatchilik asri” deb nom olgan XVIII asr ziyolilari ham yangi avlod tarbiyasini ta'lim tizimini tubdan isloh etishdan boshladilar. Fransuz faylasufi Jan Jak Russoning “Emil yoki tarbiya” asari hanuz o'z qimmatini saqlab qolmoqda. Ma'rifatparvarlar, san'at, adabiyot, teatrda tarbiya vositasi, yangicha tafakkur murabbiysini ko'rdilar. XVIII asr “fikir dunyoni boshqaradi” iborasi eng ko'p takrorlanadigan iboraga aylandi va bu davr mutafakkirlari kelajakni belgilab beruvchi, dunyoni boshqarishga qodir bo'lgan ana shunday fikrni, tafakkurni shakllantirish uchun kurashdilar.

Darhaqiqat, prezidentimiz Islom Karimov “buyuk tarbiyachi” deb atagan tarix masalaning boshqa jihatidan ham saboq beradi. Zamon bilan hisoblashmaslik, zamonga muvofiq odamlarni tarbiyalash ishiga e'tiborsizlik mamlakatni, xalqni

tanazzulga yetkalaydi. Jumladan, XVI-XVII asrlarda dunyoning eng qudratli saltanatlardan biri bo'lgan Usmonli imperiyasi XVIII asrga kelib, zamon biln hisoblashmay qo'ygani uchun taraqqiyotdan orqada qolib zaiflashdi, bo'linib ketish xavfi ostida qoldi. Faqatgina tezlik bilan ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatni bu xavfdan asrab qoldi. YA'ni, birinchi navbatda ta'lim-tarbiyaga e'tibor qaratdi va ta'lim tizimini tubdan isloh etdi.

Turkiston o'lkasining XIX asr ikkinchi yarmida mustamlakachilik balosiga yo'liqqanining sababi ham shunda. SHuning uchun istiqlolimiz qahramonlari – jadid millatparvarlari ham yurt va xalqning kelajagi qayg'usida ishni maktab islohotlaridan boshladilar. Davrning yorqin siymolaridan biri. Mahmudxo'ja Behbudiy jadid ziyolilarning umumiy fikrlarini lo'nda ifodalab: “Maktab – dunyo imoratlarining eng muqaddas va qadrlisidir. Maktabning chin va haqiqiy ma'nosini bilgan millatlar jonlari, mollari ila himmat va g'ayratlarini sarf etib, millatning taraqqiyi rivojiga ijtihod qilurlar”, - deya ta'kidladi. Ta'lim – tarbiya ishlariga umrini baxshida etgan Abdulla Avloniy esa millatning “salomat sohili”ga chiqishining vositasini quyidagicha ko'rdi:

“YOshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o'qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya ta'limg'a mohir olim va olima, adib va adibalarimiz yetushsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartiblik bo'lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlariga mohir kishilar yetushub, zamonag'a muvofiq ravishda ish yuritilsa, - kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkatlar (tovarishistvo) barpo qilinsa, yuqoridagi deydigimiz kabi, xalqimiz orasidan zamonag'a loyiq ulum va funundan boxabar ulamolarimiz ko'paysa, och va yalong'och kishilarimizning maishatlarini tuzutmak uchun harakat qilinsa, o'qutilsa, axloq va odob o'rgatilsa, shul vaqtda eskincha orasidan chiqub, haqiqiy madaniyat bo'stonig'a yuzlang'on hamda madaniyat to'lqunlaridan qutulib, sohili salomatg'a chiqg'on bo'lur eduk”.¹

Prezident Islom Karimov Ikkinch chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruzalarida O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlarining biri sifatida “barcha islohotlarimizning

bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezonidir", - deya alohida ta'kidladi. Bu avvalo, "fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borish"ni talab etadi. Bosib o'tgan yo'limizga nazar tashlasak, ko'rish qiyin emaski, taraqqiyotimizning har bir bosqichida bajarish lozim bo'lgan vazifalar mazmunan boyib, chuqurlashib borayotgan islohotlarning zaminida ana shu inson omili, barkamol avlod tarbiyasi masalasi turibdi. Birgina mustaqil taraqqiyotimizning ramziy pog'onalariga e'tiborni qaratsak, bunga amin bo'lamiz. Eslaylik, 1997 yil – "Inson manfaatlari yili", 1998 yil – "Oila yili", 1999 yil – "Ayollar yili", 2000 yil – "Sog'lom avlod yili", 2001 yil – "Onalar va bolalar yili", 2002 yil – "+ariyalarni qadrlash yili", 2003 yil – "Obod mahalla yili", 2004 yil – "Mehr-muruvvat yili", 2005 yil – "Sihat-salomatlik yili". SHu bilan bir qatorda 2008 yilni "YOshlar yili" va 2010 yilni "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinishi yoshlarga bo'lgan e'tiborning alohida namunasidir.

Yillarga berilgan nomlarda milliy yuksalishning tayanchi, maqsadi va omili bo'lgan barkamol avlod qayg'usi o'z ifodasini topgan. Ularning ortida chuqur ma'no-mazmun, aniq reja va ishlar, izchil siyosat turibdi.

Darhaqiqat, biz bugun ulkan imkoniyatlar davrida yashamoqdamiz. Biroq ularni real voqelikka alantirish yo'lidagi g'oya va xafv-xatarlar ham bisyor.

Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish uchun, avvalo, insonlar ongida tub o'zgarishlar yuz berishi zarur. Zero, kishilar tafakkurini band etgan eski andozalardan, tor qoliplardan, o'z umrini yashab bo'lgan aqidalardan xalos etmay turib, yangi davr, tarixiy taraqqiyot bilan tabiiy ravishda qo'l ushlashib keladigan yangidan-yangi muammolarni hal etib bo'lmaydi.

Prezident Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida mustaqil taraqqiyotimizga xavf solayotgan tashqi va ichki tahdidlar va ularni oldini olish yo'llari haqida batafsil fikr yuritib, ma'naviy qadriyatlar hamda milliy o'zlikni anglashning ahamiyatiga alohida urg'u berib: "Biron-bir jamiyat ma'naviy

imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"¹, - deya alohida ta'kidlagan edi.

Ma'lumki, "komil inson", "barkamol avlod" tushunchalari alohida mazmun kasb etadi. Xo'sh, bugungi kunda, mustaqil O'zbekiston sharoitida "barkamol avlod" deganda qanday avlodni tushunamizq Mamlakatimiz kelajagini, milliy yuksalishimizni belgilaydigan avlod qanday sifatlarga ega bo'lishi lozimq

Hamonki, O'zbekiston mustaqilligiga, yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishga qaratilgan barcha islohotlarning samarasini yo'q qilishga, yurtimizda qaror topgan tinch-osuda hayotni izdan chiqarishga harakat qilayotgan kuchlar bor ekan, "odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyat" saqlanib qolmoqda ekan, bugungi komil avlod avvalo ana shu ichki va tashqi tahdidlarga to'siq bo'lishga qodir, ma'naviy jihatdan mukammal, o'zligini anglagan, iymon-e'tiqodi mustahkam, muqaddas qadriyatlarni o'ziga singdirgan, irodasi baquvvat bo'lmog'i kerak.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Rossiyaning "Nezavisimaya gazeta" muxbiriga bergan intervyusida ayrim G'arb davlatlarining noxolis xatti-harakatlari, xalqaro terrorchilik xavfi va ularga qarshi kurash xususida gapirar ekan, jumladan, Ukraina va Gruziyada sodir bo'lgan "baxmal inqilob"larni tayyorlashja G'arbning ta'siri haqidagi savolga javob berib, G'arbning ta'siridan ko'ra muhimroq ichki omilga diqqatni jalb etdi. Prezident O'zbekistonda Ukraina yoki Gruziya ssenariysi takrorlanishi mumkin emasligini ta'kidlab: "Nega deganda, ular (fuqarolarimiz) endi bir paytlar SSSR Oliy Soveti xalq deputatlari s'ezdlari bepilandlik bilan "til-zaboni yo'q, qiyofasiz ko'pchilik", deb atalgan odamlar emas. Ular bugun o'z mamlakatida, o'z yurti uchun, kelgusi avlodlar taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur his qilib yashayotgan insonlardir-"¹ degan edi.

Bungu erishganimizning eng asosiy sabablaridan biri, avval boshdan jamiyatni ma'naviy yangilash ishiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilganida.

YUrtboshimizning 1992 yilda e'lon qilingan va dasturiy ahamiyat kasb etgan "O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li" kitobidayoq "Mustaqil

O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari" deb nomlangan alohida bobida ko'rsatilgan to'rt asosiy negiz buning asosiy mazmunini ochib bergan:

umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

vatanparvarlik.

Bu tushunchalar bir-biridan ajralmas va bir-birini taqozo etgan holda, O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini qurishda mustahkam asos vazifasini o'taydi.

Zero, Vatan ravnaqi, YUrt tinchligini o'z taqdirini butun jamiyat va hatto butun insoniyat taqdiriga daxldorligini chuqur his etgan, asrlar sinovidan o'tib, insonlik mohiyatini o'zida mujassam etgan ma'naviy qadriyatlar ongu qalbiga singgan, o'z fikri va salohiyatini erkin va faol namoyon eta oladigan, yuksak axloq-odobli, ma'rifatli shaxslarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Mavlono Mir Alisher Navoiy yozmishlar:

“Xukamo ham dedilar, shaxni tengiz, xayli ariq,

Ul achig'dur bu achig', ul chuchuk o'lsa bu chuchuk”.

Navoiy nazdidagi shohni davlat ramzi deb olsak, xalqning, har bir fuqaroning davlat holatini belgilashi ayon bo'ladi. agar Ariq-daryo, ya'ni xalq tabiati achchiq bo'lsa, ya'ni ma'nan barkamol bo'lmasa, turli illatlardan forig' bo'lmagan bo'lsa, uning suvlari quyilgan dengiz, ya'ni davlat ham achchiq, ya'ni unda adolat, mehr-shavqat, ezgulik bo'lmaydi va aksincha.

Eng zamonaviy bilimlar bilan qurollanmagan, bilim va tafakkur dunyosi keng kishilarsiz O'zbekistonning kelajagini, jahon hamjamiyatidagi mustahkam o'rnini tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda bu ortiqcha izohli talab etmaydigan haqiqat ekanligi barchaga ayon. SHuning uchun ham barkamol avlodni yetishtirishning bosh vositasi bo'lgan ta'lim tizimini isloh etish jarayonida milliy ta'lim mazmuni va sifatini zamon talablari darajasiga ko'tarish bilan bir qatorda, taraqqiy topgan davlatlardagi o'quv markazlariga borib o'qishlariga, professor-

o'qituvchilarning xorijda malakalarini oshirishlariga hamda ta'lim sohasi bilan bog'liq xorijiy mablag' va grantlarni respublikaga jalb etishga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Ammo masalaning yana bir jihati bor. XX asr faylasuflaridan biri: "Ma'naviyat bilan uyg'unlashmagan bilim yovvoyi odam qo'lidagi cho'qmorga aylanadi", - degan edi. Demak, Prezident Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, "demokratik qadriyatlarning oddiy iste'molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisi" bo'lishga qodir insongina chinakam insoniy fazilatlariga ega bo'lgan komil shaxsga aylanadi. Erkin fikrlaydigan, o'zining qat'i nuqtai nazariga ega bo'lgan, yuksak ma'naviyatli shaxs yot buzg'unchi g'oyalarga nisbatan immunitet hosil qilishi va egallagan bilimlarini ezgu ishlarga, yurt ravnaqiga yo'naltirishi mumkin bo'ladi. Fuqarolarimiz, avvalo, yoshlarimiz ongi va qalbida g'oyaviy immunitetni shakllantirish, ularni milliy istiqlol g'oyasidan qudratli vosita bilan qurollantirish borasida talay ishlar amalga oshirildi. Lekin ularning ko'lami qanchalik keng bo'lmasin, xotirjamlikka berilish noto'g'ri bo'lar edi. Chunki jahonda va mintaqamizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar, tarkib topgan ijtimoiy va ma'naviy holat g'oyaviy va siyosiy raqiblarimizga dunyo jamoatchiligi oldida o'zlarini "afgor omma manfaatlarini ko'zlab ish yurituvchi qandaydir ideal siyosiy harakat sifatida namoyon etish imkoniyatini yaratish ehtimoli oshib bormoqda". Ular ilgari surayotgan g'oyalarning davlatlar va millatlar orzu-niyatlariga sirtidan o'xshashligi ba'zi uzoqni ko'rolmaydigan omi kishilarning qaramog'iga ilintirmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Islom Karimov "Nezavisimaya gazeta" muxbiri bilan suhbatda bu haqda shunday deydi: "Sir emas, bizda faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar har doim ham olijanob niyatlarni ko'zlayvermaydi. Aytaylik, "XXI asr liderlari" kabi mavzularda o'tkazilayotgan seminarlarda ular iqtidorli yoshlarni "tanlashda hokimiyatga yordam" beradi, biroq bunda ular eng avvalo, o'z manfaatlarini ko'zlashadi. So'ngra chet elga muntazam safarlar uyushtiriladi, ularda turli simpozium va seminarlar davomida bu odamlarning ongiga g'oyat ustalik bilan ta'sir o'tkaziladi. SHu tariqa o'zlarini "dunyo fuqarolari" deb ataydigan kishilar toifasi tayyorlanadi. Bu hozirgi

voqeligimizda “oddiy odamlar sari o’n qadam”, deb ataladi. Juda zo’r. Keyinchalik ana shu go’zal ibora paydo bo’lgan mamlakatning uch nafar fuqarosi Toshkentda portlashlar uyushtiradi”.¹

Bunga Prezidentimiz Islom Karimov o’z munosabatini asosli noroziligini bildirib yuqorida tilga olingan intervyusida shunday dedi: “+ozog’iston MXKning yuqori martabali vakillaridan biri – bayonot berishicha, bu odamlar – “shahidlar”, ekstremistlar, ular +ozog’istonga emas aynan O’zbekistonga qarshi ish ko’rmoqda. Go’yoki buning sababi – +ozog’istonda e’tiqod erkinligi va barcha demokratik me’yorlar amal qilmoqda, shu bois ashaddiy jangarilarning bu mamlakatga qarshi da’vosi yo’q emish”².

Bunday faktlar yoshlarning komillik darajasi xususida gap borganda, ularning o’z haq-huquqlarini va davlat, jamiyat, xalq oldidagi burchlarini tanigan va “huquqiy madaniyat” sohibi bo’lishlari lozimligini ayon etadi. Hazrat Alisher Navoiy so’zlari bilan aytganda:

“Ish erur ulkim, o’zi oni qilur,

Hikmat ulkim, ham o’zi oni bilur”.

YA’ni, biz barpo etayotgan huquqiy demokratik davlatning tayanchi bo’lgan qonun ustuvorligiga rioya etish majburiyatga emas, fazilatga aylanmog’i lozim. Buning uchun odamlarni va avvalo, yoshlarni demokratiyaga o’rgatish zarur, toki kishi shaxsiy javobgarlik hissini tuysin, axloq me’yorlariga rioya etish uning uchun ichki zaruratga aylansin.

Niyat, so’z va ish birligi har qanday harakatning samarasini belgilaydi. Bugungi yoshlar ertaga mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarini o’z qo’liga oladigan, bugungi niyatlarimizni ertaga ro’yobga chiqaradigan kishilar. Ular har tomonlama yetuk bo’lishlari, shu jumladan jismonan sog’lom bo’lishlari ham muhim. Millat kelajagi haqida qayg’urgan Abdulla Avloniy ham bola tarbiyasi haqida fikr yuritarkan, tarbiya jarayonini uch qismga bo’lgan edi: “badan tarbiyasi”, fikr tarbiyasi, va “axloq tarbiyasi”. Avloniy “badan tarbiyasi”ni birinchi o’ringa qo’ygani bejiz emas, zero: “Badanning salomat va quvvatli bo’lmog’i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o’qumoq, o’qutmoq, o’rganmoq va o’rgatmoq uchun insonga

kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Maishatimizni rohatda bo'lmog'i jasadimizning sog'lom bo'lmog'iga bog'lidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yib astarini yuvub ovora bo'lmoq kabiturki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog'lom bir vujud kerakdur"1.

SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan mamlakatda sport va jismoniy tarbiya masalariga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa so'nggi yillarda O'zbekistonda ommaviy jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining bu sohaga oid bir qator farmonlari va qarorlari e'lon qilindi. Jumladan, 1992 yili yanvar oyida "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" +onun chiqarildi, 2000 yil 27 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi +onunning yangi tahriri e'lon qilindi. Sportni yanada rivojlantirish maqsadida 1999 yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi +arori va "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish dasturi" qabul qilindi.

YAna shuni aytish joizki, yurtimizda yoshlarni nafaqat ruhiy barkamol avlod qilib tarbiyalashga, balki jismonan sog'lom bo'lib o'sishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 1993 yil fevral oyida Toshkent shahirda "Rahm-shafqat, sog'lomlashtirish va sport Respublika jamg'armasi" tashkil qilindi, shu yil 23 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom avlod uchun" nohukumat xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. 2002 yil 24 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi va shu Farmonni bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining +arori chiqdi (2002 yil 31 oktyabr), 2004 yil 29 avgustda esa Respublika Prezidenti chiqargan "O'zbekiston Bolalar sportini

rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonni bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorni qabul qildi. Unda asosiy diqqat-e'tibor jismoniy va ma'naviy sog'lom yosh avlodni tarbiyalash va buning uchun shart-sharoit yaratishga qaratildi hamda bolalar sportini rivojlantirish va ayniqsa qishloq joylarda o'quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishiga ommaviy jalb etish umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirishning muhim vazifasi va 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining ajralmas qismi deb belgilab qo'yildi.

O'quvchi va talabalar uchun uch bosqichli sport o'yinlari – "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada"lar tobora ko'proq ommaviy ko'lam kasb etib bormoqda. YOshlarning barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya va sportga ommaviy jalb etishning bunday uch bosqichi uzluksiz tizimi jahon tajribasida hali kuzatilmagan va bunga ilk marotaba O'zbekistonda asos solindi.

Ayniqsa, 2012 yil "Umid nihollari" sport musobaqalarining Navoiy viloyatida o'tkazilishi barcha navoiylik yoshlarni bu ishga keng jalb qilib, ularning sportning turli sohalariga qiziqishini yanada kuchaytirdi.

SHu bilan birga, O'zbekiston hukumati inson va oilaning jismoniy va ma'naviy sog'lomligining asosini tashkil etuvchi ommaviy sportni yanada keng targ'ib etish va rivojlantirish maqsadida bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqib, ularni amalga oshirish bo'yicha qator tadbirlar belgilanmoqda. Jumladan, 2003 yil 4 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" navbatdagi qarorni chiqardi. Unga asosan "O'zteleradio" kompaniyasi, Davlat Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati va Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining taklifi bilan 4-maxsus "Sport" telekanali tashkil etildi.

Nihoyat O'zbekistonda "madaniyat va sportni rivojlantirish muammolarini kompleks tarzda hal etish, jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan boy va barkamol shaxslarni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish, sog'lom turmush tarzi va

sportga muhabbat tuyg'usini singdirish, aholining madaniy va estetik talab-ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, shuningdek, madaniyat va sport sohasini boshqarishni takomillashtirish, bu sohada davlat siyosatini amalga oshirishni muvofiqlashtirish darajasini ko'tarish maqsadida" 2004 yil 27 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi.

2005 yilning "Sihat-salomatlik yili" deb e'lon qilinishi va u bilan bog'liq tadbirlarning ishlab chiqilgani ham barkamol avlodni voyaga yetkazish ishining uzluksiz davomi bo'ldi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, millat, vatan, xalq istiqboli yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan avlod har tomonlama yetuk bo'lmog'i kerak. Buning uchun yoshlarga milliy o'zligini anglatish, ularning qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ma'naviy va jismoniy jihatdan chiniqtirish lozim. Ana shunday barkamol avlod el-yurtimizning farovon va baxtli kelajagini hal qilishdek katta mas'uliyat bilan bog'liq sharaflı ishni ado etishga qodir bo'ladi.

2.2. Barkamol avlod ongida milliy istiqloq va Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish omillari

Prezident Islom Karimov o'zining "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobida hali istiqloq arafasida- 1989 yilning oktyabr oyida sobiq mustabid tuzum hukmron bo'lib turgan bir paytda qo'yidagi fikrni bildirgan edi: "Agar kelajagimizni o'ylab ish qilmoqchi bo'lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, ularning hayoti haqida qayg'uradigan bo'lsak, avvalo, mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutlaqo o'zgartirishimiz kerak...Iqtisodimizni, hayotimizni o'zgartirish ana shularga bog'liq. Agar shuni qilmasak, bu yurishimizda katta yo'lga chiqishimiz qiyin bo'ladi.

Aytish kerakki, kadrlarni har tomonlama yetuk qilib tayyorlamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qo'llab-quvvatlamasdan, o'ylaymanki biron-bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi".

Xalqimizga nisbatan tazyiq va ta'qiblar avj oldirilgan ana shu og'ir va murakkab davrda YUrtboshimiz qalbida barkamol avlod orzusi ozod va mustaqil hayotga erishish maqsadi bilan uyg'un holda tug'ilgan edi, deb aytishga bugun yetarli asoslar bor.

Sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish orzusi aynan mustaqillik bilan bog'liq ezgu intilish bo'lgani bois istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab uni amalga oshirish eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lib kelmoqda.

Mustaqilligimizning birinchi kunlaridan boshlab Respublikamizda yosh avlod tarbiyasi va ta'lim tizimi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bir qator qonuniy hujjatlarning, jumladan "Ta'lim to'g'risida"gi +onun va kadrlar tayyorlash Milliy dasturining qabul qilinishi buning yaqqol dalilidir.

Bu hujjatlarning amalga oshirilishi ta'lim tizimining sifat jihatidan samaradorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimi g'oyasi, o'zbek milliy ta'lim modeli amalga oshayotganligining muhim jihatidir.

YUrtboshimiz tomonidan 2010 yil – "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinar ekan, bu Dasturni amalga oshirish uchun 8 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu mamlakatimiz byudjet mablag'ining katta qismini tashkil etadi.

Prezidentimiz I.Karimov Osiyo taraqqiyoti banki boshqaruvchilari Kengashi 43-yillik majlisining ochilish marosimidagi nutqida O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va malakali kadrlar tayyorlashga e'tiborni qaratib, quyidagilarni alohida ta'kidladi: "Mamlakatimizda 1997 yildan buyon eski ta'lim tizimidan to'liq voz kechib, 9 yillik umumta'lim maktablari va uch yillik kasb-hunar kollejlari hamda litseylarni qamrab olgan 12 yillik bepul ta'limni ko'zda tutadigan Davlat dasturi izchil amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda yangi barpo etilgan 1,5 mingdan ortiq kollej va litseylarda 1 million 500 ming nafardan ziyod yigit-qiz o'rta texnik va gumanitar ta'lim oldi, 2-3 mutaxassislikka ega bo'ldi, xorijiy tillarni, asosan, ingliz tilini o'rgandi.

Bularning barchasi, keyingi yillarda ta'lim uchun sarflangan xarajatlar mamlakatimiz Davlat byudjetining 37 foizidan oshganini, sog'liqni saqlash tizimiga yo'naltirilgan xarajatlar bilan birga hisoblaganda, 50 foizdan ortiqni tashkil etganini inobatga oladigan bo'lsak, O'zbekiston naqadar yuksak malakali kadrlar va inson kapitali salohiyatiga ega ekani yaqqol namoyon bo'ladi".□

Dunyo mamlakatlaridan bu – anjumanga kelgan mehmonlar ham O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimiga berayotgan e'tiborini e'tirof etdilar. Jumladan, YAponiya vakili Nachao Kazuyuki O'zbekiston OAVlari sahifasida o'z fikrlarini bayon etdi: "Mamlakatimiz o'rtasida ta'lim sohasida ham yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. Talabalarga ta'lim berish jarayonida shunga amin bo'ldimki, O'zbekiston yoshlarining intellektual salohiyati juda yuqori. Bu yurtingizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar samarasidir".¹

O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy istiqlol g'oyasining zarurligi, milliy-ma'naviy qadriyatlar, milliy g'oyaning umumbashariy tamoyillariga e'tibor berilib milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadi – Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdan iborat ekanligini yoshlar qalbiga singdirilib, ularda milliy g'ururni uyg'otish uchun keng qamrovli tadbirlar ishlab chiqildi.

Bugun barcha bakalavriat bosqichlarida talabalarning maktabda va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida milliy istiqlol g'oyasi bo'yicha egallagan tushuncha va bilimlari boyitilib, jamiyat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi hamda globallashuv jarayonida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishini hisobga olgan holda qator mavzularni chuqur o'rganishga kirishildi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda uzviylik va izchillikka rioya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Talabalarga jamiyat taraqqiyotining g'oyaviy asoslari

o'qitilib, talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlari hamda dunyoqarashini boyitib borish bilan birga milliy mafkuraning mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni Prezident Islom Karimovning milliy mafkurani shakllantirishga doir nutqlari va asarlarini o'rganish orqali amalga oshirilmoqda.

Prezident I.A.Karimov "Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murkkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat-ma'rifatli insonning ikki qanotidir"²-degan edi.

YUksak ma'naviyat kaliti bilimdonlikdadir. Insonning kuch va qudrati endilikda zamonaviy ilmlarni zabt etish bilan belgilanayotir. Bu zabt etish esa bilimlarni egallash bilan bog'langan. Bilim olish mehnat va mashaqqatli bo'lib, Mutafakkirlarimiz jahon xalqlarini ilm, olishga chorlab keldilar. CHunki bilimli shaxs yengilmas, qiyinchiliklarga bardosh beruvchidir. Bilim va bilimdonlik haqida buyuk pedagog YUsuf Xos Hojib shunday fikrlarni aytgan: "Kishining bilimdonligi uning tili orqali namoyon bo'ladi. Iforni yashirsa, hidi ayon qilganidek, bilimni ham yashirib bo'lmadi. U so'z orqali ma'lum bo'laveradi. Olamda odam paydo bo'lganidan beri yaxshi odatlarning barchasi bilimdonlar tufayli paydo bo'ldi. SHuning uchun ham bilimdonlar doimo to'rga o'tkaziladi"¹. Bu fikrlar o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. Minglab yillar tajribasi o'z mazmunini shu fikrlarda mujassamlashtirgan.

O'zbekistonda qurilayotgan jamiyat milliy qadrlarsiz amalga oshmaydi. Kadrlar muammosi I.A.Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli asarida yana bir bor ta'kidlanib, ustuvor yo'nalishlar sifatida ko'rsatildi: "Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va YAna kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi, o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq"². Demak, kadrlar ilm-fanni egallamasa, bilimdon bo'lmasa mamlakat kelajagi porloq bo'lmaydi.

Bugungi yoshlar o'z ota va bobolari, onalari va buvalari izidan borib, ular egallamagan bilimlarni egallashi, ularning boshlagan buyuk ishlariga ko'maklashishi, yordamlashishi lozim. Bu yo'lda ular charchash nima ekanligini bilmasdan, bilim cho'qqilarini egallashi, aql va mustaqil tafakkurlash bilan qurollanmoqliklari lozim. Har bir yosh o'z qadamini dadil tashlamog'i uchun haqiqiy bilimdon bo'lishi davr talabidir. Bilimli kishilar yo'lda qoqilmaydilar, ular hunar o'rganadilar, siyosat bilan shug'ullanadilar, madaniyatni yaratadilar. Bugun NDPIda yuzlab shunday shogirdlar voyaga yetmoqda, o'nlab Davlat stipendiatlari sovrindorlari Zulfiya mukofoti lauriati, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati sovrindorlari barchani quvontirmoqda.

Ma'naviy kamolot va bilimning manbai kitob bilan bog'langan. Kitob bo'lmasa, uni o'qib, uqmasa bilimdonlik shakllanmasligi sir emas. Donolikni va bilimdonlikni o'rgatish, saqlash va tarqatish ana shu kitoblarga ham bog'liq. Kitob faqat o'tmishni bilish uchun emas, balki kelajakni ham belgilab beruvchidir. Kitob ijod qilish manbaidir. SHu bilan birga kitob o'qish ham mehnatdir, ham bekorchilikning kushandasidir. U insonlarga kulfatlardan qutulish yo'lini ko'rsatguvchidir, o'z vaqtida ulug' do'stdir ham. Mutafakkir Abdurahmon Jomiyning quyidagi fikrlari ham bebahodir:

Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda,
G'amxo'ring bo'lgay, u g'amli zamonda.
U bilan qol, tanho hech bo'lmas ozor,
Joningga yuz rohat, beradi takror¹.

I.Karimov "YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida e'tiborimizni yosh avlod tarbiyasiga qaratar ekan, ularning sof va beg'ubor qalbini turli ma'naviy tahdidlardan asrab qolish ustida keng to'xtaladi. SHu sababdan ham kitobda "yoshlar", "tarbiya", "ta'lim", "ma'naviyat", "milliy g'oya" kabi so'z va iboralar o'z o'rnida takror va takror ishlatiladi.

YUrtboshimiz bu kitobda yoshlar oldida va ularning tarbiyachilari, ustozlari oldida turgan vazifalarni ko'rsatib o'tadi:

“Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa – ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g’oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag’rikenglik kabi tamoyillarning ma’no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim-tarbiya ishlarining markaziga qo’yish, ularni yangi bosqichga ko’tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat”.¹

NDPI professor-o’qituvchilari institut rahbariyati boshchiligida uzluksiz ta’lim tizimining samaradorligini oshirish maqsadida Navoiy viloyatida joylashgan o’rta maxsus, kasb-hunar kollejlari, akadem-litseylar va o’rta ta’lim maktablari bilan hamkorlik qilish dasturlarini ishlab chiqib, kafedralarga ma’lum ta’lim muassasalarini berkitdilar.

Jumladan, institutning “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrası ham Qiziltepa tumanidagi 12-maktab berkitilgan edi. Bu maktab bilan hamkorlik shartnomalarini ishlab chiqilib, maktab jamoasi, tuman ziyolilari bilan uchrashuv va muloqotlar o’tkazildi. Bir guruh institut olimlari maktab jamoasi bilan qizg’in bahs-munozaralar o’tkazgan edilar. Xuddi shunday tadbirlar Karmana pedagogika kolleji, Karmana iqtisodiyot, Xatirchi tumanidagi pedagogika va Tibbiyot kollejlarida, Navbahor pedagogika kolleji, Navoiy shahridagi 5-,8-, 12-maktablarida ham muntazam o’tkazilib kelinmoqda.

Milliy g’oyani barkamol avlod ongiga singdirishni yanada yuksaltirish uchun quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim:

- OAV bu masala ta’sirchanligini yanada kuchaytirish zarur.
- Soha bo’yicha darslik, qo’llanmalarni yanada ixchamlashtirish, risolalar chop etishni kuchaytirish lozim.
- Milliy istiqlol g’oyasi bo’yicha ko’rgazmali qurollar, video-audi vositalarni markazlashgan holda ishlab chiqarish zarur.
- Talabalarning ijodiy ishlashlariga, mustaqil faoliyat ko’rsatishlariga ko’proq e’tibor qaratish lozim.

-YOshlarimizni qadimiy shaharlarimiz, muzeylarimiz va tarixiy joylarga sayohatlarini uyushtirishimiz kerak.

Bugungi kunda yoshlarimizning ongiga milliy g'oyani singdirish, ularning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifa hisoblanadi.²

O'zbekiston yoshlarining tafakkur tarzi. Mustaqillik yillarida yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishda yoshlarning o'rni katta. Mustaqillik tufayli yoshlarning dunyoqarashi o'zgardi. Ularning g'urur, oriyat, sha'n va nomus tuyg'ulari kuchaymoqda. Hayotga va mehnatga munosabati, Vatanga, ona zaminga mehri, egalik va mas'uliyat hissi kuchaydi. Endilikda yoshlar o'zligini anglay boshladi. +anday zaminda yashayotganimizni his qilish, umuminsoniy qadriyatlarga intilish bilan birga, SHarq falsafasi, o'zbekona tafakkur nuri barchaning dilidan o'rin ola boshladi. Milliy an'analarimiz va udumlarimizni tiklash va rivojlantirish tamoyili kuchaydi. Islom dinimizni qadrlash ma'naviyatimizni yangi ma'nolar bilan to'ldirishga olib keldi. Ulug' bobokalonlarimiz madaniy xazinasiga haqiqiy vorislik qila boshladik. Ulardan faxrlanish imkoniyatiga ega bo'ldik. YUrtimizda yashayotgan barcha millat, elat vakillarining tinch-inoq yashashi uchun sharoit yaratildi. Bundan yoshlar bahramand bo'lmoqda.

Respublikamizda qaror topayotgan fuqarolik jamiyatida va bu jamiyatda istiqomat qiluvchi yoshlarning ongini, dunyoqarashini o'zgartirish va insoniylashtirish maqsadida nihoyatda ko'p chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Inson erkinligi va ozodligini kafolatlovchi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. +ator universitetlar tashkil etilib, o'quv tizimimizda jahon andozolari, tarbiya yo'nalishida ma'naviy merosimizning eng ilg'or va insonparvar tamoyillari asos qilib olindi. Davlat va jamiyat qurilishi masalalarini o'rganish, yuksak malakali rahbar kadrlar tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi tashkil etildi. Vatanimizning +urolli Kuchlari va xavfsizligini mustahkamlash, fuqarolarning o'z uyi va ish joylarida tinch-xotirjam bo'lishlari bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Ta'lim tizimi-mizdagi islohotlar zamonaviy litsey va kollejlarda ta'sis qilinishiga olib

keldi. YOshlarning bilim va salohiyatlarini yuksaltirish maqsadida «Ulug'bek», «Umid», «Ustoz», keyinchalik «Iste'dod» jamg'armalari tuzildi. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi asosida umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Badiiy Akademiyaning tashkil etilishi, Imom Ismoil Buxoriy, Amir Temur, Bobur, Ulug'bek, Bahouddin Naqshband, al-Farg'oniy, Moturidiy, Xo'ja Axror-Vali kabi milliy madaniyatimiz darg'alariga bag'ishlangan tantanalar, qurilgan majmualar yangi jamiyatning amalga oshirayotgan real ma'naviy ishlaridir. Ular yangi jamiyatning kuch-qudratidan nishona bo'libgina qolmay, milliy ong va yangi dunyoqarash shakllanishida, yoshlarda milliy g'ururni mustahkamlashda juda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillikning dastlabki va eng oliy ne'mati o'zligimizni anglab yetish bo'ldi. O'zligini anglab yetgan tafakkurning birinchi belgisi milliy g'oya, milliy mafkuradan bahramand bo'lishdir. Mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlik milliy mafkura doirasida uchrashi mumkin bo'lgan ichki ixtiloflarning oldini oldi va uni keng miqyosda yoshlar qalbiga kirib borishiga imkon yaratdi. YOshlar ongi va tafakkurida o'zgarish kuchayar ekan, ular o'z hayoti va istiqbolini millat hamda mamlakat istiqboli bilan bog'liq ekanligini chuqur his qila boshlaganini anglatadi. «Dunyoda yoshlar ongi va qalbini egallashga» urinishlar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, yoshlar tafakkuri, dunyoqarashini shakllantirish masalalariga befarq bo'lmaslik kerak. Demak, mafkuraviy tahdidning saqlanib qolishi yoshlarni ham o'ylashga undaydi.

YOshlar ma'naviyatini oshirish masalalarining birlamchi yoki ikkilamchi vazifalari yo'q. Ularning barchasi bir yo'la hamda doimiy diqqat-e'tibor markazida turmog'i kerak. SHuning uchun ta'lim-tarbiya, bilim va dunyoqarashga katta ahamiyat berilmoqda.

Biz bugun fuqarolarning erkinligi va mustaqil tafakkuriga asoslangan jamiyat qurayotgan ekanmiz, yoshlarimizga jamiyatda mutlaq erkinlik bo'lmasligini, mustaqil fikrlash mas'uliyatsizlik va burchni unutish emasligini tushuntirib borishimiz zarur.

Fuqaro erkinligi va yangi ijtimoiy tuzum tomonidan kafolatlanishi-da, fuqarolarning jamiyat manfaatlariga mos kelmaydigan mutlaqo erkin xatti-harakatlarning kafolati emas. «Men mutlaqo erkin fuqaroman, mustaqil tafakkurli insonman, bilganimni qilaman» qabilida yashash tarzini o'zgartirish insonning ijtimoiy va milliy mohiyatiga ega aqidadir.

Bu tadbirlarning barchasining maqsadi ostida yoshlar tarbiyasi va bu tarbiya zaminida ularning ma'naviyatini harakatga keltiruvchi mustaqillik g'oyalari, milliy qadriyat-larni asrab-avaylash va rivojlantirish tuyg'usi, Vatan istiqboli yo'lida halol va pok mehnat qilish singari milliy mafkuraning o'zak tomirlarini singdirish yotadi.

Xulosa

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorliklar, ijtimoiy iqtisodiy sohalaridagi islohotlar, ma'naviy-ma'rifiy tizimdagi yangilanishlarning zahirida hayotimizning asl mazmuni — farzandlarimizning barkamol turmush tarzini yaratishdek maqsad mujassam. Aytish mumkinki, 2010 yilning yurtimizda "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinishi, tom ma'noda, yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatimizning mantiqiy davomi bo'ldi. Negaki, barcha sa'y-harakatlarimizning negizida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi. Kirib kelayotgan yangi yilning mamlakatning kelajagi va umidi bo'lmish yosh avlodning barkamolligi yo'lidagi xayrli ishlarga bag'ishlanishi, bir tomondan, yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlarning ko'lamini yanada kengaytirsam, ikkinchi tomondan, biz, ustozlar uchun o'z faoliyatimiz davomida yanada samarali va mas'uliyatli mehnat qilish zaruratini taqazo etadi.

“Barkamol avlod yili” Davlat dasturi, o'z navbatida, navqiron avlodga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatish borasida amalga oshirilayotgan tom ma'nodagi tarixiy ishlarimizni davom ettirish va yangi poonaga ko'tarishga qaratilgan. Ushbu Dasturning maqsadi mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yurtimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratishdir. “Barkamol avlod yili” Davlat dasturida aks etgan maqsad va vazifalar zahirida yagona g'oya mujassam. Bu g'oya, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, sog'lom zurriyot, ya'ni jismoniy va ma'naviy yetuk avlodning shakllanishi, imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishi uchun zarur bo'lgan tizimni yaratish, yoshlarimizning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishini, jamiyatimiz hayotida munosib o'rin

egallashini ta'minlashdan iborat. YUrtboshimiz O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligi va Konstitutsiyasi qabul qilinganining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda 2012 yilni "Mustahkam oila yili" deb atashni taklif etdilar. Bu dasturlarning barchasida yoshlar va barkamol avlod masalalariga, ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratildi. Barkamol avlod - jamiyat taraqqiyotining asosidir. SHu bois, yurtimizda mustaqillikning ilk yillaridanoq ham jismoniy, ham ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. YUrtboshimiz ta'kidlaganidek, sog'lom avlod deganda, avvalo, sog'lom nasl, jismonan baquvvat, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlod tushuniladi.¹

Prezidentimiz I.Karimovning 2009 yil 1 iyuldagi "2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi 1144-son Qarori ijrosini hayotga tatbiq etish maqsadida oilaviy hayot ostonasida turgan yoshlar ishtirokida "YOsh oila maktabi" o'quv-mashg'ulotlarini olib borish, oilaviy hayot saboqlaridan, oilada sog'lom muhitni shakllantirish, sog'lom farzandlar dunyoga keltirib, ularni komil inson qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya soatlari amalga oshirilmoqda. Bunda avvalombor, oilaning muqaddasligi hamda nikoh mas'uliyati bo'yicha kelajakda oila quradigan yigit va qizlarning tafakkurini, ongini o'zgartirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. +izlarimiz ongida onalik, yigitlarimizda esa ota bo'lish mas'uliyatini shakllantirish, yosh oilalarning huquqiy savodxonligini yanada yaxshilash va oilada bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari muntazam ravishda o'tkazilmoqda.

Prezidentimiz chiqishlaridan birida: "Farzandlarimiz, yoshlarimiz bizning nafaqat ishonchimiz va kelajagimiz, yoshlarimiz bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir", desak, ыlaymanki, bu olib borayotgan siyosatimiz va maqsadlarimizga javob beradigan da`vat ылadi.

Bugun haqiqatdan ham yoshlarimiz uchun keng va istiqbolli maydon vujudga kelgan. Unda yoshlarning kamol topishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar mavjud.

O'zbekistonda yoshlarga berilayotgan e'tibor bugun jahon mamlakatlari tomonidan yukasak ehtirom bilan tan olinmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahrida 2011 yil 25-26 noyabr kunlari "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom ona – sog'lom bola" mavzusidagi xalqaro simpozium bo'lib utdi. Mazkur xalqaro anjumanda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, BMTning Bolalar jamg'armasi, BMTning aholishunoslik jamg'armasi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari, qirqqa yaqin mamlakatdan sog'liqni saqlash vazirliklari rahbarlari, tibbiyot sohasida jahonda tan olingan mashhur olimlar, xalqaro ekspert va tahlilchilar ishtirok etdi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining bosh direktori Margaret CHen xonim ham o'z nutqida bunday ijobiy ko'rsatgichdan mamnun ekanligini bildirib o'tdi⁴.

YUksak salohiyatli avlodni tarbiyalash eng muqaddas maqsad ekanligi YUrtboshimiz tomonidan 2012 yil 16-17 fevral kunlari Toshkentda o'tkazilgan ta'lim tizimiga bag'ishlangan anjumanda yana bir bor o'z aksini topdi. Bu 48 mamlakat ta'lim tizimi rahbarlari, olimlar va mutaxassislar ishtirok etgan Xalqaro forumda yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashning milliy modelini yaratishda O'zbekiston tajribasini o'rganish asosiy o'rinni egalladi.

Dunyo mamlakatlarining vakillari bu sohada O'zbekiston tajribasini ommalashtirish ommalashtirishga katta e'tibor berdilar⁵.

⁴ Халқ сўзи, 2011, 29 ноябрь.

⁵ Халқ сўзи 2012 йил 18-28 февраль сонлари

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Ўzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “Ўzbekiston”, 2012
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: “SHarq”, 1999.
3. Karimov I.A. “Ўzbekiston 21-asrga intilmoyda”. T.: “Ўzbekiston”, 2000.
4. Karimov I.A. “Milliy istiqlol mafkurasi –xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonjdir”. T.: “Ўzbekiston”, 2000.
5. Karimov I.A. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon –hayot pirovard maqsadimiz”. T.: “Ўzbekiston”, 2000.
6. Karimov I.A. “Biz uchun xalqimiz Vatanimiz manfaatlaridan ulug’ maqsad yo`q”. T.: “Ўzbekiston”, 2001.
7. Karimov I.A. “Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma`sulmiz”. 9-jild. T.: “Ўzbekiston”, 2001.
8. Karimov I.A. “Ўzbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”. T.: “Ўzbekiston”, 2002.
9. Karimov I.A. “Tadbirkorlar va ishbilarmonlar ijtimoiy qatlami Ўzbekiston siyosiy maydonida ularning egallashi lozim”. T.: “Ўzbekiston”, 2003.
10. Karimov I.A. “Tinchlik va xavfsizligimiz ularning kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat`iy irodamizga bog`liq”. 12-jild. T.: “Ўzbekiston”, 2004.
11. Karimov I.A. “Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash mamlakatni modernizaciya va isloh etishdir”. T.: “Ўzbekiston”, 2005.
12. Karimov I.A. “Biz tanlagan yo`l –demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`lida”. 11-jild. “Ўzbekiston”, 2007.
13. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta`minlash – barcha islohot va ularning o`zgarishlarimizning bosh maqsadidir. Ўzbekiston Respublikasi

Prezidenti Karimov I.A. 8 fevralda Vazirlar Mahkamasidagi ma`ruzasi.
Xalq so'zi, 2008 yil 9 fevral.

14. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: "O'zbekiston", 1998.
15. Karimov I.A. Jismoniy va etuk avlodni tarbiyalash bosh maqsadimiz. T.: "O'zbekiston", 2004.
16. Karimov I.A. "YUksak ma`naviyat-engilmas kuch". T.: "Ma`naviyat", 2008.
17. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 19yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma`ruzasi // Xalq so'zi, 2011 yil 7 dekabr.
18. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: "O'zbekiston", 2009, 24-bet.
19. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari // I.A.Karimov. – T.: O'zbekiston, 2009. 56 bet.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi +onunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi". T. O'zbekiston, 2010, 56b.
21. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. O'zbekiston 2011.
22. Karimov I. YUksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. Xalq so'zi, 2012. 18 fevral.
23. "Barkamol avlod yili davlat dasturi to'g'risida", G'G'Do'stlik bayrog'i. 2010, 30-yanvar, №7-son.
24. Xalq so'zi, 2010, 4 may.
25. Kuch – adolatda, 2010 yil, 5 may.

- 26.+arang: “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi. T.: “O’zbekiston”, 2010, 7-bet.
- 27.“Barkamol avlod yili” davlat dasturini ishlab chiqish va amalgam oshirish bo’yicha tashkiliy chora-tadbirlar to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi. “O’zbekiston ovozi” gazetasi, 2009 yil 10 dekabr.
- 28.Navoiy viloyatida Barkamol avlodni tarbiyalashda amalga oshirilayotgan ustivor chora-tadbirlar. “Do’slik bayrog’i” gazetasi. 2010 yil 10 mart.
- 29.Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «Yangi asr avlodi», 2001.
- 30.Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (Oliy ta’lim muassasalari uchun qo’llanma). T.: «Yangi asr avlodi», 2001.
- 31.Milliy istiqlol g’oyasi: ko’rgazmali vositalar. T.: Ma’naviyat, 2001.
- 32.Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (Izohli ko’rgazmali vositalar to’plami). T.: «Yangi asr avlodi», 2001.
- 33.Saifnazarov I. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Uslubiy-ko’rgazmali qo’llanma. T.: TDIU, 2001.
- 34.Erkayev A. O’zbekiston yo’li (Prezident I.Karimovning islohotlar nazariyasi mulohazalar). T.: Ma’naviyat 2011. 272 b.